2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 34 (1633), 2026-yil 19-fevral, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

MULOQOTLARDA O‘ZBEKISTON – AQSH STRATEGIK SHERIKLIGINI YANADA MUSTAHKAMLASHNING AMALIY JIHATLARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Vashington shahrida bo‘lib turibdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Vashingtonga amaliy tashrifi AQSH savdo vaziri Xovard Latnik bilan uchrashuvdan boshlandi.

O‘zbekiston — AQSH strategik sherikligini yanada mustahkamlashning amaliy jihatlari, shuningdek, ustuvor yo‘nalishlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Qo‘shma Shtatlar O‘zbekistonning asosiy sheriklaridan biri ekanligi mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo hajmi 1 milliard dollardan oshdi, mamlakatimiz bozorida AQSHning 340 ga yaqin kompaniyalari faoliyat yuritmoqda.

Energetika, o‘ta muhim minerallar, transport, qishloq xo‘jaligi, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarda yirik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Qiymati 35 milliard dollar bo‘lgan uch yillik Iqtisodiy hamkorlik dasturi amal qilmoqda.

Ustuvor loyihalarni tizimli qo‘llab-quvvatlash uchun yaqinda tashkil etilgan Ishbilarmonlik kengashining imkoniyatlaridan foydalanish va Investitsiya platformasini ishga tushirish zarurligi ta’kidlandi.

Savdo munosabatlarini rivojlantirish hamda O‘zbekiston hududlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirish muhimligi qayd etildi.

Vashington shahriga tashrifning ishbilarmonlik tadbirlari davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Eksport-import banki prezidenti va raisi Jon Yovanovich hamda Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi (DFC) bosh ijrochi direktori Ben Blekni qabul qildi.

O‘tgan yili Prezident Donald Tramp bilan bo‘lib o‘tgan muzokaralar AQSH ishbilarmon doiralari bilan savdo-investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishga kuchli turtki bergani ta’kidlandi.

Ishbilarmonlik kengashi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ustuvor loyihalarni tizimli ilgari surish uchun Investitsiya platformasini ishga tushirishga alohida e’tibor qaratildi.

Eksimbank bilan hamkorlik yo‘nalishlari belgilab olindi. Yirik sanoat va infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish hamda yuqori texnologiyali uskunalar yetkazib berishni qo‘llab-quvvatlash shular jumlasidan.

DFC rahbariyati bilan suhbatda investitsiyaviy hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash muhimligi ta’kidlandi. Korporatsiyaning yirik milliy va mintaqaviy loyihalarda ishtirok etish, moliya bozori va energetika tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston Prezidenti AQSH tomonini Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishga taklif qildi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari huzurida tashrif davomida imzolangan O‘zbekiston va AQSH o‘rtasida investitsiya platformasini tashkil etish to‘g‘risidagi bitim almashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vashingtonga amaliy tashrifi doirasidagi ishbilarmonlik uchrashuvlarining navbatdagisi AQSH savdo vakili Jeymison Grir bilan bo‘ldi.

Qo‘shma loyihalar doirasida ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimining amaliy natijalari muhokama qilindi.

O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlari, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohalarida barqaror sur’atda rivojlanib borayotgani ta’kidlandi.

O‘zaro savdoni ko‘paytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatlar mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘tgan yili tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard dollardan oshdi.

Mamlakatimizning JSTga a’zo bo‘lish jarayonini yakuniga yetkazishga oid masalalarda amaliy hamkorlikni kuchaytirish va AQSH tomonidan ushbu jarayonlarni yanada qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi.

Mahsulotlarni barqaror yetkazib berish, texnik tartibga solish va raqamli savdoga oid mintaqaviy yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH o‘rtasidagi Savdo va investitsiyalar bo‘yicha hadli bitim (TIFA) doirasida hamkorlikni faollashtirish taklifi bildirildi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti AQSH savdo vakili Jeymison Grirni joriy yilning iyun oyida bo‘lib o‘tadigan Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishga taklif qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vashington shahriga tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida ikki tomonlama hujjatlarni imzolashga bag‘ishlangan marosim va qo‘shma loyihalar taqdimotida ishtirok etdi.

Tadbirda AQSH hukumati va moliya institutlari vakillari — savdo vakili Jeymison Grir, Prezidentning maxsus vakili Paolo Zampolli, Eksimbank prezidenti va raisi Jon Yovanovich, AQSH — O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, shuningdek, “Traxys”, “Valmont Industries”, “Gulf Oil”, “Avigen Broiler Breeding Group”, “John Deere”, “BlackRock Financial Markets Advisory”, “Oppenheimer” va boshqa yetakchi kompaniyalar rahbarlari ishtirok etdi.

Videoaloqa orqali uchrashuvda O‘zbekiston hududlari rahbarlari ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida yangi, amaliy formatda o‘tayotgan ushbu uchrashuv bundan avvalgi davra suhbatining mantiqiy davomi hamda iqtisodiy sheriklik strategik ishonch va o‘zaro manfaatdorlik ruhida yuksak darajaga ko‘tarilayotganining ifodasi ekanini ta’kidladi.

— Bugungi kunda sheriklar ishonchli, qoidalar aniq-ravshan, hamkorlik esa uzoq muddatli bo‘lishi yetakchi o‘ringa chiqmoqda. Biz Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan hamkorligimizni aynan shu mantiq asosida qurmoqdamiz, — dedi Prezidentimiz.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim yo‘nalishlariga to‘xtalib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiyot O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklikning asosiy tayanch nuqtalaridan biri ekanini ta’kidladi.

Qo‘shma Shtatlar bilan hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari qatorida o‘ta muhim xomashyo, neft-kimyo, energetika, qishloq xo‘jaligi, parrandachilik va boshqa tarmoqlar ko‘rsatib o‘tildi. AQSH Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi va Eksimbankining bitimlarga hamrohlik qilishda doimiy hamkorlar sifatidagi roli ortib borayotgani alohida qayd etildi.

Qo‘shma Ishbilarmonlik va investitsiya kengashining salohiyatidan faol foydalanish muhimligi ta’kidlandi.

Hududlararo aloqalarni mustahkamlash doirasida O‘zbekiston hududlari rahbarlarining AQSHning hamkor shtatlariga tashriflarini tashkil etish topshirildi.

Davlatimiz rahbari huzurida yoqilg‘i quyish shoxobchalari tarmog‘ini qurish, yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, muhim minerallarni qazib olish va yetkazib berish, parrandachilik klasterini tashkil etish, agrosanoat, moliya bozorini rivojlantirish hamda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo‘shma Shtatlariga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O‘zA

O‘ZBEKISTON XALQIGA RAMAZON TABRIGI

Qadrli vatandoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni, butun xalqimizni yurtimizga mehr-oqibat, xayru saxovat va shukronalik timsoli bo‘lgan muqaddas Ramazon oyining kirib kelishi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Albatta, ushbu qutlug‘ ayyomda barchamizni Ramazoni sharifga mana shunday sog‘-omon, birlik va hamjihatlikda yetkazgani uchun Parvardigori olamga cheksiz shukronalar aytamiz.

El-yurtimizning ijtimoiy-ma’naviy hayotida alohida o‘rin tutadigan, insonni ezgu va savob ishlarga da’vat etadigan ushbu oyni munosib tarzda o‘tkazish maqsadida bu yil ham mamlakatimizda katta tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, mahalla va uy-joylar, masjid va madrasalarni obod qilish, keksa, nogiron va yordamga muhtoj shaxslarning holidan xabar olish, qo‘shnilar, yaqin qarindoshlarga mehr va e’tibor ko‘rsatish, ibodat va iftor marosimlarini tartibli o‘tkazishga xonadon va mahalla ahllari, jamoatchilik vakillari tarafidan alohida ahamiyat berilmoqda.

Bularning barchasi bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini, insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlash, yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilishi tabiiy, albatta.

Ramazon oyining ulug‘ fazilatlari, axloqiy-ma’naviy ahamiyati aynan ana shunday olijanob ishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Bu haqda so‘z yuritganda, keyingi yillarda inson qadrini, har bir fuqaroning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy adolat O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani, shu asosda amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlarimiz xalqimiz hayotini tubdan o‘zgartirayotganini ta’kidlash o‘rinlidir.

Joriy yilni mamlakatimizda **“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”** deb e’lon qilganimiz va bu borada tegishli amaliy ishlarni boshlab yuborganimiz zamirida ham ana shunday buyuk intilishlar mujassamdir.

Jamiyatni yuksaltirish asosi mahalladir. Chunki mahallada o‘sish va o‘zgarish bo‘lsa, butun jamiyat rivojlanadi. Mahallalarimizning yutug‘i va farovonligi pirovard natijada butun jamiyatning yutug‘i va farovonligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Aziz do‘stlar!

Qutlug‘ zaminimiz uzra Alloh taoloning marhamati yog‘ilib turgan mana shunday saodatli kunlarda ajdodlar xotirasini, ularning ezgu ishlari, xayrli amallarini eslash va davom ettirish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda islom dini va madaniyati ravnaqiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk allomalarimizning muqaddas qadamjolarini obod qilish, ilmiy merosini tiklash va o‘rganish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida targ‘ib etish bo‘yicha ko‘pgina ishlarni amalga oshirayotganimiz sizlarga yaxshi ma’lum, albatta.

Ulug‘ ajdodlarimizning shonli an’analariga sadoqat bilan yashab kelayotgan xalqimizning azmu shijoati bilan noyob me’moriy loyihalar asosida Toshkent shahrida — Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda esa buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriy majmuasini bunyod etish ishlari yakuniga yetkazilganini faxr bilan aytib o‘tmoqchiman.

Ramazoni sharif kunlarida muhtaram ulamolarimiz, ilm-fan va ijod ahli, keng jamoatchilik vakillari ishtirokida ana shu tabarruk maskanlarda buyuk aziz-avliyo va allomalarimiz xotirasiga ehson dasturxonlari yozib, bu muqaddas ziyoratgohlar eshiklarini xalqimiz uchun keng ochishni reja qilganmiz va bu ishlarni albatta amalga oshiramiz.

Afsuski, hozirgi vaqtda jahonning turli mintaqalarida urush va janjallar davom etmoqda. Pok niyatlar qabul bo‘ladigan ushbu muborak ayyomda nizo va adovatlar barham topib, tinchlik, o‘zaro ishonch va hamkorlik aloqalari qaror topishini chin dildan istab qolamiz.

Fursatdan foydalanib, uzoq va yaqin mamlakatlardagi vatandoshlarimizga, butun musulmon ummatiga ham samimiy tabrik va tilaklarimizni yo‘llaymiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Sizlarni ezgulik, mehr-muruvvat va baraka oyi – mohi Ramazonning boshlanishi bilan yana bir bor tabriklayman.

Ushbu shukuhli kunlarda barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, xonadonlaringizga tinchlik va farovonlik tilayman.

Ro‘za kunlarida qilinadigan barcha ibodatlar, ezgu niyat va amallar ijobat bo‘lsin!

Xalqimizni, Vatanimizni Yaratganning o‘zi panohida asrasin!

Ramazon oyi barchamizga muborak bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

DAVLAT BOSHQARUVIDA YANGI SIFAT, JAMIYAT HAYOTIDA YANGI MAZMUN

So‘nggi yillarda mamlakatimizdagi islohotlar jarayonini tahlil qilar ekanmiz, bitta muhim xulosa o‘z-o‘zidan namoyon bo‘ladi: taraqqiyot endi alohida sohaviy qarorlar yoki qisman o‘zgarishlar emas, balki yaxlit, o‘zaro bog‘liq va natijaga yo‘naltirilgan davlat siyosati mantig‘i asosida shakllanmoqda. Shu ma’noda, Prezidentimizning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” doirasida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni mazkur jarayonning navbatdagi, sifat jihatdan yangi bosqichini ifodalaydi.

Davomi 3-betda

Munosabat

“O‘zbekiston Prezidentining Tinchlik kengashining birinchi yig‘ilishidagi ishtiroki Toshkent va Vashington o‘rtasidagi siyosiy muloqot sezilarli darajada faollashgani bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelgani tashrifga qo‘shimcha ahamiyat bag‘ishlaydi.

AQSHDA O‘ZBEKISTON ISHONCHLI VA MAS’ULIYATLI HAMKOR SIFATIDA QABUL QILINMOQDA

Vengriyaning Karoy universiteti huzuridagi Britaniya va Amerika tadqiqotlari instituti katta ilmiy xodimi Esterxaz Zoltan Peteresh O‘zbekiston Prezidentining 17-fevral kuni boshlangan AQSHga amaliy tashrifidan kutilayotgan natijalar xususida fikr bildirdi:

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQSHga tashrifi va Toshkentning Tinchlik kengashi tadbirlaridagi ishtiroki doirasida shuni ta’kidlashni istardimki, ushbu tadbir platformaning xalqaro maqomini sezilarli darajada oshiradi va uning siyosiy vakilligini kuchaytiradi.

Ko‘p vektorli va pragmatik tashqi siyosatni izchil amalga oshirayotgan O‘zbekistonning ishtiroki Tinchlik kengashini mintaqaviy yoki bloklar doirasidan tashqariga chiqadigan xalqaro format sifatida qabul qilishga yordam beradi. Fikrimcha, O‘zbekiston yetakchisining ishtiroki Markaziy Osiyoning global diplomatiyadagi roli ortib borayotganini ifodalaydi. Bu yetakchi davlatlarning mintaqa mamlakatlarini xalqaro barqarorlik, mojarolarni hal qilish va xavfsizlik arxitekturasining asosiy masalalarini muhokama qilishga jalb etish istagini ko‘rsatadi.

2026-yil yanvar oyida Davosdagi Jahon iqtisodiy forumi maydonida tashkil etilgan Tinchlik kengashining o‘zi ko‘p tomonlama muloqotning yangi mexanizmlarini institutsionalizatsiya qilishga urinish sifatida qaralmoqda. Uning yaratilishi xalqaro hamjamiyatning mojarolarning oldini olish va hozirgi zamonning, avvalo, Yaqin Sharqdagi keskin inqirozlarning siyosiy yechimlarini topish uchun qo‘shimcha diplomatik vositalarni shakllantirishga bo‘lgan obyektiv talabini aks ettiradi. Shu munosabat bilan O‘zbekistonning ta’sischi davlatlar qatorida ishtirok etishi Toshkentning muloqot diplomatiyasini ilgari surish, xalqaro huquq normalarini hurmat qilish va kuch bilan hal etish ssenariylaridan voz kechish yo‘lining mantiqiy davomi sifatida talqin qilinadi.

O‘zbekiston Prezidentining Tinchlik kengashining birinchi yig‘ilishidagi ishtiroki Toshkent va Vashington o‘rtasidagi siyosiy muloqot sezilarli darajada faollashgani bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelgani tashrifga qo‘shimcha ahamiyat bag‘ishlaydi. Keyingi oylarda oliy darajadagi muloqotlar sezilarli darajada faollashgani ikki tomonlama munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi. AQSHda O‘zbekiston xalqaro muammolarni hal qilishda ishtirok etishga tayyor, muvozanatli tashqi siyosat yuritadigan, ishonchli, oldindan aytish mumkin bo‘lgan va mas’uliyatli hamkor sifatida namoyon bo‘lyapti.

Vengriyaga kelsak, Viktor Orban hukumati Tinchlik kengashini tuzish tashabbusiga istiqbolli xalqaro mexanizm sifatida qaraydi. AQSH Prezidenti Donald Trampning Vengriya Bosh vaziriga ushbu tashkilotga a’zo bo‘lish taklifi Budapeshtda jiddiy diplomatik yutuq va mamlakatning jahon siyosatidagi sezilarli rolining tasdig‘i sifatida qabul qilindi.

Umuman olganda, O‘zbekiston va Vengriyaning Tinchlik kengashidagi ishtiroki tashabbusga qo‘shimcha geografik va siyosiy kenglik beradi, uning qonuniyligini kuchaytiradi.

“Dunyo” AA

Budapesht shahri

O‘ZARO OCHIQLIK VA UMUMIY MANFAATLARGA ASOSLANGAN YANGICHA SIYOSIY TAFAKKUR

Zuhra MIRG‘OZIYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Ekspertlar O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 17-19-fevral kunlari Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etishini mamlakatimizning global tinchlik yo‘lida tashlangan yana bir muhim qadami sifatida baholayotgani bejiz emas. Zero, Kengashning AQSH Tinchlik institutida bo‘lib o‘tadigan ilk sammiti G‘azo sektorini tiklash, unga gumanitar yordam ko‘rsatish, ushbu mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash masalalariga bag‘ishlanadi va alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston bu borada o‘zining amaliy harakatlarini allaqachon boshlagan.

Yangi O‘zbekiston ruhi

Jumladan, 2023-yil oktyabrda G‘azo sektori aholisiga yordam ko‘rsatish uchun mablag‘ ajratish haqida qaror qabul qilingandi. 2024-yil dekabrida esa urush hududlarida aziyat chekkan 100 nafar falastinlik bolalar va ayollar yurtimizga olib kelinib, ular davlat tomonidan to‘liq tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan va sog‘lomlashtirish sihatgohlariga joylashtirilgan edi.

Umuman olganda, so‘nggi yillarda dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy o‘zgarishlar, yakuni qanday tugashini taxmin qilib bo‘lmaydigan voqea-hodisalar, iqtisodiy qarama-qarshilik va hatto suverenitetga tahdidlar har bir davlatdan xalqaro munosabatlarni real vaziyatlardan kelib chiqib belgilashni taqozo etmoqda. Ya’ni biror ishni boshlashdan oldin yetti o‘lchab bir kesish, chuqur o‘ylash, oqibatlarini tahlil qilish, so‘ng yakuniy qarorga kelish lozim. Chunki bugungi gap ertaga to‘g‘ri kelmaydigan zamonda yashayapmiz.

Ana shunday tahlikali pallada ochiq, pragmatik, teng huquqli va konstruktiv, o‘zaro ishonchga asoslangan, puxta o‘ylangan va tashabbuskor tashqi siyosati, shubhasiz, mamlakatimizni global tinchlik, diplomatiya markazlaridan biriga aylantirmoqda. Buning isbotini yurtimiz birgina o‘tgan yilning o‘zida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasiga, so‘nggi 40 yilda UNESCOning Parijdagi bosh qarorgohidan tashqarida — Samarqandda o‘tkazilgan Bosh konferensiya sessiyasiga, “Markaziy Osiyo + Yevropa Ittifoqi” sammiti, Xalqaro iqlim forumi, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuviga mezbonlik qilganida ham ko‘rish mumkin.

Haqiqatan, o‘tgan yil O‘zbekiston uchun tashqi siyosatda har jihatdan natijador bo‘ldi. Prezidentimizning 26 davlatga oliy darajadagi, qator davlatlar rahbarlarining esa O‘zbekistonga tashrifi amalga oshirildi. So‘nggi yillarda 11 davlat bilan strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatilgani va ularning umumiy soni 19 taga yetganini ham alohida qayd etish lozim. Qozog‘iston, Ozarbayjon va Tojikiston bilan esa ittifoqchilik munosabatlari yo‘lga qo‘yildi. Umuman, 2017-yildan buyon xorijiy davlatlarda 16 ta yangi diplomatik va konsullik vakolatxonasi ochildi hamda ularning soni 60 taga, diplomatik aloqa o‘rnatilgan davlatlarniki esa 165 taga yetdi.

Bugun Toshkentda 60 dan ortiq davlatning elchixonasi, konsulligi hamda faxriy konsullari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 26 ta xalqaro tashkilot vakolatxonalari ochilgan. O‘zbekiston 100 dan ortiq nufuzli tashkilotlarning teng huquqli a’zosidir.

Teng sheriklik va do‘stona munosabatlar asosiga qurilgan tashqi hamkorlik yurtimiz rivoji, xalqimiz farovonligi oshishiga ham xizmat qilyapti. Masalan, o‘tgan yili tariximizda ilk bor mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasi 80 milliard, eksport qiymati esa 33,5 milliard dollarni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya miqdori 43,1 milliard dollarlik ko‘rsatkichga yetdi.

Tariximizda birinchi marta O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti 145 milliard dollardan oshdi. Islohotlar uchun mustahkam moliyaviy baza bo‘lgan oltin-valyuta zaxiralarimiz 60 milliard dollardan oshdi. 5 million yurtdoshimiz daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga, kambag‘allik darajasi esa 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi. Bu 1,5 million ehtiyojmand fuqaro kambag‘allikdan chiqdi, 1435 ta mahalla kambag‘allikdan xoli hududga aylandi, deganidir. Eng asosiysi, islohotlar samarasini har bir mahalla, xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda. Chunki biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o‘rgandik.

Yana bir muhim ko‘rsatkich: 2025-yilda vizasiz tartib joriy etilgan davlatlar soni 94 taga yetdi. Bu yurtimizga kelayotgan xorijlik sayyohlar sonining 11,5 milliondan oshishini, turistik xizmatlar eksporti qiymati esa 4,8 milliard dollarga yetishini ta’minladi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy sayyohlik oqimida ichki mintaqaviy turizmning ulushi 80 foizdan oshdi. Albatta, mazkur natijalarning barchasi xalqaro hamkorlik mazmun jihatidan yangi bosqichga chiqqani bilan bevosita bog‘liq.

O‘zbekistonning tashqi dunyoda vazmin va oqilona, uzoqni ko‘zlab yuritayotgan siyosati Markaziy Osiyoda taraqqiyotning yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichini boshlab berdi. O‘tmishi va qadriyatlari, tili, dini, madaniyati va urf-odatlari o‘xshash bo‘lgan qo‘shni, qardosh davlatlar o‘rtasida bugun tom ma’noda chinakam birdamlik muhiti qaror topdi. Dunyoga o‘rnak bo‘larli darajada o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va hurmat muhiti shakllandi.

Qayta tiklangan tarixiy rishtalarni xalqaro hamjamiyat ham alohida mamnuniyat bilan e’tirof etmoqda va bu bejiz emas. Yaqin tariximizda shunday davrlar ham bo‘ldi: qardosh davlatlar o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik nafaqat boshi berk ko‘chaga kirdi, balki chegara, suv resurslari bilan bog‘liq qurolli to‘qnashuvlar yuz berishi xavfi paydo bo‘ldi.

Prezidentimizning tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvi yo‘lga qo‘yildi va 2017-yil mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yili bo‘ldi. Mintaqadagi davlat rahbarlari uzoq yillar mobaynida birinchi marta tashqi vositachilarsiz doimiy muloqotga kirishdi va bugun bu tuzilma o‘zaro ishonch, ochiqlik va umumiy manfaatlarga asoslangan yangicha siyosiy tafakkur ramziga aylandi.

Aynan Maslahat uchrashuvlari tufayli eski davrdan qolgan ko‘plab kelishmovchiliklar bartaraf etildi. Ishonchsizlikdan haqiqiy hamkorlik yo‘liga o‘tildi. Xususan, chegara bilan bog‘liq masalalar uzil-kesil hal etildi. Bir paytlar qardosh xalqlarni ajratib turgan to‘siqlar do‘stlik va hamkorlik ko‘prigiga aylandi. O‘tgan yili mart oyida O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta to‘g‘risidagi shartnoma va Xo‘jand deklaratsiyasi imzolangani haqli ravishda olamshumul voqea bo‘ldi.

O‘zaro hamkorlik mintaqada iqtisodiy aloqalar rivojini yangi bosqichga ko‘tardi. So‘nggi sakkiz yilda Markaziy Osiyo davlatlarining YIM qariyb 2,5 barobar o‘sib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo esa 2 karradan ziyod ko‘payib, 253 milliard dollardan oshdi. Savdo hajmi qariyb 11 milliard dollarga, investitsiyalar miqdori esa 5,6 barobarga yetdi.

Ushbu ko‘rsatkichlarni mamlakatimiz miqyosida olsak, O‘zbekistonning qo‘shnilar bilan tovar ayirboshlash hajmi 2016-yildagi 2,4 milliarddan 2024-yilda 7,2 milliard dollarga yetdi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkentda o‘tgan yettinchi Maslahat uchrashuvida davlatimiz rahbari taklifi bilan tuzilmaga Ozarbayjonning qo‘shilishi qardosh xalqlarimiz uchun haqiqatan tarixiy kun bo‘ldi. Qayd etilganidek, bu harakat Maslahat uchrashuvlariga kuch, shiddat berish barobarida hamjihatlikda qarorlar ishlab chiqishda ham yangi ufqlarni ochadi.

2022-yilda Markaziy Osiyo davlatlarining ko‘p tomonlama hamkorlik konsepsiyasi tasdiqlandi. Uning doirasida “Markaziy Osiyo plyus” muloqoti yo‘nalishlari belgilandi va bu institut mintaqaning xalqaro huquqiy subyekt sifatidagi mavqeini yanada kuchaytirdi. Ilgari tashqi hamkorlik ikki tomonlama yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, bugun yetakchi davlatlar Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni yaxlit mintaqaviy sherik, yagona subyekt sifatida rivojlantirmoqda.

Qisqa muddatda ushbu formatda oliy darajadagi o‘ndan ortiq uchrashuv o‘tkazildi. 2025-yilning o‘zida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo + Yevropa Ittifoqi”, “Markaziy Osiyo + Xitoy”, “Markaziy Osiyo + Rossiya”, “Markaziy Osiyo + AQSH” va “Markaziy Osiyo + Yaponiya” sammitlari mintaqa strategiyasi global darajada oshib borayotganini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizning 2019-yil sentabrdan mazkur tashkilotga to‘laqonli a’zo bo‘lgani tuzilmadagi bo‘shliqni to‘ldirdi. Tashkilot nufuzi va a’zolar o‘rtasidagi integratsiya jarayoni kuchayishiga sabab bo‘ldi. Rasmiy Toshkent tashkilotni modernizatsiya qilishda asosiy kuchga aylandi. Chunki O‘zbekistonning ishtirokisiz tashkilot to‘laqonli faoliyat yuritishi mumkin emas.

Tashkilotning Samarqandda o‘tgan sammitida Prezidentimiz ilgari surgan qator tashabbuslar qog‘ozga ko‘chdi. “Samarqand deklaratsiyasi”, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan TDT strategiyasi, “Turkiy dunyo nigohi — 2040” konsepsiyasi, Turkiy investitsiya jamg‘armasining tashkil etilishi shular jumlasidan.

Prezidentimiz shu yil 15-yanvar kuni Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar vakillari bilan uchrashuvda mamlakatimizning Tashqi siyosat faoliyati konsepsiyasini yangilash zarurligini ta’kidladi. Unda ustuvor yo‘nalishlar qayta ko‘rib chiqilishi, milliy manfaatlar himoyasi hamda xalqaro maydonda mamlakatimizning o‘rnini yanada mustahkamlashga qaratilgan aniq vazifalarni belgilash muhimligini qayd etdi.

Umuman, yangi O‘zbekistonning o‘zaro ishonchga asoslangan konstruktiv va faol tashqi siyosati haqida uzoq gapirish mumkin. Zero, tobora globallashayotgan dunyoda bugun hech bir mamlakat tashqi hamkorlarsiz mustaqil rivojlana olmaydi.

ARZONLASHTIRILGAN MAHSULOTLAR YARMARKALARI ISH BOSHLADI

Joriy yil 13-fevral kuni davlatimiz rahbari raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan edi. Unda Ramazon oyi arafasida ichki bozorlarda narx-navo barqarorligini ta’minlash masalasi ham muhokama qilingandi.

Mazkur vazifalar ijrosiga jiddiy qaralmoqda. Jumladan, Surxondaryo viloyatida ham Ramazon oyini milliy qadriyatlarimizga mos yuksak saviyada o‘tkazishga katta tayyorgarlik ko‘rildi. Ayni kunlarda viloyatning barcha shahar va tumanlaridagi 15 ta asosiy oziq-ovqat bozori hududida arzonlashtirilgan mahsulotlar yarmarka savdosi yo‘lga qo‘yildi. Ularda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari aholiga maqbul va barqaror narxlarda sotilmoqda.

— Denov dehqon bozoridagi yarmarkada qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini bozordagidan ancha arzon narxda sotib oldik, — deydi O‘shor qishlog‘ida yashovchi Salohiddin Eshonqulov. — Bunday imkoniyat bizni xursand qildi.

Bu odamlarga yaxshilik qilishning, saxovatning eng ommabop, samarali yo‘li deb o‘ylayman.

Surxondaryoda 2025-2026-yillar qish-bahor mavsumi uchun ichki iste’mol bozorini barqaror ta’minlash maqsadida asosiy turdagi jami 39 ming 552 tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlari jamg‘arilgan edi. Hozir bu mahsulotlar bosqichma-bosqich bozorlarga chiqarilib, aholiga arzon va barqaror narxlarda taklif etilmoqda.

Surxondaryo viloyati markazi Termiz shahrida faoliyat yuritayotgan “Yashil dunyo” markaziy dehqon bozorida tashkil etilgan yarmarka aholi uchun juda qulay. Shu bois, yarmarka doim odamlar bilan gavjum.

— Termizdagi yarmarkada tadbirkorlar, sotuvchilar, xaridorlar uchun yetarli sharoitlar, zaxira mavjud, — deydi tadbirkor Jahongir Nabiyev. — Yarmarkaga barcha, ya’ni qayta ishlash korxonalari, kichik biznes vakillari va tadbirkorlar, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklar jalb etilgan. Bu esa mahsulotlar turi va sifati yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Umuman, arzon narxdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari savdosini tashkil etishga vohaning barcha hududida jiddiy e’tibor qaratilgan. Masalan, Ramazon oyi munosabati bilan Angor oziq-ovqat markaziy dehqon bozori hududida ham yarmarka tashkil etildi. Bu yarmarkada 30 turga yaqin mahsulot xaridorlarga qulay narxda sotilyapti.

— Bozor peshtaxtalarini zarur mahsulotlar bilan uzluksiz ta’minlash, narx-navo sun’iy oshirib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida mas’ul idoralar xodimlari doimiy nazorat qilib boryapti, — deydi “Angor dehqon va oziq ovqat bozori” MCHJ rahbari Sherzod Samandarov. — Bozorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari zaxirasi yaratildi. Bozorni oralab, insonlarni kuzatsangiz, ularning yuz-ko‘zida masrurlik, ertangi kunga ishonchni ko‘rasiz.

Viloyatda 33,5 ming gektarga to‘qsonbosti ekinlari ekilgan. Buning hisobidan erta bahorda 711 ming tonna mahsulot yetishtiriladi. 161 ming tonna piyoz, 118 ming tonna sabzi, 40 ming tonna ko‘kat, 1,5 ming tonna sarimsoqpiyoz, 227 ming tonna karam hosili olish ko‘zlanmoqda. Bundan tashqari, fermer va dehqon xo‘jaliklari 15 ming gektarga kartoshka ekishni reja qilgan. Bularning barchasi xalqimiz dasturxoni to‘kin bo‘lishiga, barchaga teng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil – Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili

DAVR NAFASI

3 34-son

2026-yil 19-fevral, 34-son

DAVLAT BOSHQARUVIDA YANGI SIFAT,

JAMIYAT HAYOTIDA YANGI MAZMUN

Akrom TOSHPO‘LATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktori, yuridik fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

Hujjat mazmunini chuqur tahlil qilar ekanmiz, uni oddiy reja yoki chora-tadbirlar majmuasi sifatida qabul qilish mutlaqo noto‘g‘ri bo‘lar edi. Gap, avvalo, davlat boshqaruvi falsafasidagi o‘zgarish — “hujjat ishlab chiqish”dan “real natijaga erishish” tamoyiliga tizimli o‘tish haqida bormoqda. Bunday yondashuv esa davlatning jamiyat oldidagi mas’uliyati, ijro intizomi va hisobdorlik madaniyatini mutlaqo yangi pog‘onaga olib chiqadi.

2026-yilga mo‘ljallangan islohotlar dasturlari Prezidentimizning xalqimiz va parlamentga yo‘llagan Murojaatnomasida ilgari surilgan g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liq. Bu yerda muhim jihat shundaki, Murojaatnoma siyosiy irodaning ifodasi sifatida qolib ketmayapti, balki aniq mexanizmlar, mas’ul ijrochilar, moliyaviy manbalar va o‘lchanadigan natijalar bilan mustahkamlanmoqda. Davlat siyosatidagi bunday uzluksizlik parlament nazorati va huquqiy tahlil nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyatga ega. Bu yerda strategik maqsadlar bilan kundalik davlat boshqaruvi o‘rtasida uzilish yo‘q, aksincha, ular o‘zaro bir-birini to‘ldirib, yagona mantiqiy zanjirni tashkil etmoqda.

2026-yildagi islohotlarda iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Bu yerda asosiy e’tibor faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish emas, balki qo‘shilgan qiymat, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlikka qaratilayotgani alohida qayd etilishi lozim. Bugungi global raqobat sharoitida arzon ishchi kuchi yoki xomashyo resurslariga tayanish modeli o‘z imkoniyatlarini deyarli tugatdi.

Texnologik o‘sish deganda faqat zamonaviy uskunalar yoki raqamlashtirish emas, balki butun ishlab chiqarish zanjirini qayta ko‘rib chiqish, qo‘shilgan qiymatni oshirish, ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyotga joriy etish nazarda tutiladi. Bu jarayonda biznes-inkubatorlar, innovatsion klasterlar va startap ekotizimini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ichki bozorda talabni rag‘batlantirishga qaratilgan choralar esa iqtisodiy o‘sishni aholi daromadi bilan bog‘lash imkonini beradi. Ipoteka, elektromobil xaridi uchun kredit mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat iqtisodiy faollikni oshirish, balki ekologik va ijtimoiy maqsadlarga ham xizmat qiladi.

Ichki bozorda talabni rag‘batlantirish, ipoteka va elektromobil xaridi uchun kredit mexanizmlarini takomillashtirish kabi tashabbuslar iqtisodiy o‘sishning oddiy raqamlardan odamlar hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omilga aylanishini ta’minlaydi. Bunday yondashuv ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashda g‘oyat muhim.

2026-yil islohotlarida mehnat bozoriga yondashuv sifat jihatidan o‘zgarmoqda. Endi gap faqat ish o‘rinlari ochish haqida emas, balki ularning mehnat bozoridagi real talabga mosligi, barqarorligi va inson salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi haqida ketmoqda.

Kasblarni rivojlantirish, sanoat zonalari huzurida kasbiy qayta tayyorlash markazlarini tashkil etish, yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish — bularning barchasi inson kapitaliga qaratilgan islohotlardir. Davlat siyosatida mehnat bozorini faqat ish o‘rinlari soni bilan emas, balki ularning sifati, barqarorligi va kelajakka yo‘naltirilgani bilan baholash tamoyili mustahkamlanmoqda.

Bu jarayonda ta’lim, ishlab chiqarish va davlat institutlari o‘rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan shu bog‘liqlik iqtisodiy o‘sishni uzoq muddatli va barqaror qiladi.

Sanoat zonalari huzurida kasbiy qayta tayyorlash markazlarini tashkil etish bu borada muhim institutsional yechimdir. Bu orqali ta’lim tizimi bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzilish qisqaradi, kasb-hunar ta’limi bozor ehtiyojlariga moslashadi.

Bunday yondashuv mehnat migratsiyasi, yoshlar bandligi va kambag‘allikni qisqartirish masalalarida ham ijobiy natija berishi kutilmoqda. Chunki inson kapitaliga kiritilgan sarmoya — eng barqaror investitsiya.

Ekologiya sohasida belgilangan maqsadlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish, energiya samaradorligi bo‘yicha KPI joriy etish, utilizatsiya va qayta ishlash zanjirini shakllantirish davlat siyosatida ekologik mas’uliyatning institutsionallashuvidan dalolat beradi.

Ekologik muvozanatni ta’minlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 30 foizga yetkazish kabi maqsadlar bugunning talabidan kelib chiqqan holda belgilanmoqda. Bu yo‘nalishdagi KPI ko‘rsatkichlarining joriy etilishi ekologik siyosatni deklaratsiyadan amaliy natija darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Bu yerda muhim jihat shundaki, ekologik siyosat faqat cheklov va taqiqlar emas, balki iqtisodiy rag‘bat va samaradorlik ko‘rsatkichlari orqali amalga oshirilmoqda. Energiya tejaydigan texnologiyalar, “yashil iqtisodiyot” elementlarini joriy etish biznes uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi.

Daraxt kesish uchun javobgarlikni qat’iylashtirish, utilizatsiya va qayta ishlash zanjirini yo‘lga qo‘yish kabi tashabbuslar esa ekologik madaniyatni shakllantirish bilan bir qatorda huquqiy mexanizmlarni ham mustahkamlaydi.

Islohotlar dasturlarida har bir tashabbus uchun aniq KPI belgilanishi, shaxsan javobgar rahbarlar va muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar ko‘rsatilgani davlat boshqaruvida mutlaqo yangi standartlar joriy etilishini ko‘rsatmoqda. Ushbu yondashuv ijro intizomini kuchaytiradi, byurokratik sustkashlikka barham beradi va parlament hamda jamoatchilik nazorati samaradorligini oshiradi.

Dasturlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilish mexanizmiga ega ekani, ayrim tashabbuslar uchun qo‘shimcha hujjat talab etilmasligi davlat apparatida qaror qabul qilish sur’atini oshirishga xizmat qiladi.

2026-yilga mo‘ljallangan islohotlar dasturlarining eng muhim xususiyati shundaki, ular alohida sohalarni bo‘lingan holda emas, balki davlat, iqtisodiyot va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘radi. Islohotlarning samaradorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda bir sohadagi o‘zgarish ikkinchisisiz barqaror natija bermaydi.

Shu ma’noda, islohotlar dasturlari sohaviy qamrovi, institutsional teranligi va ijro mexanizmlari bilan avvalgi amaliyotdan tubdan farq qiladi.

Hujjatda mahallaga alohida e’tibor qaratilayotgani tasodifiy holat emas. Mahalla bugun nafaqat ijtimoiy institut, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi eng muhim muloqot maydoniga aylanmoqda. Infratuzilmani takomillashtirish, ichki yo‘llar, piyodalar va velosiped yo‘laklari, jamoat maskanlari, xizmatlar sifati — bularning barchasi yangi O‘zbekiston qiyofasini, eng avvalo, mahallada shakllantiradi. Ularning sifatli va barqaror bunyod etilishi mahalladagi turmush madaniyatini o‘zgartiradi, aholi faolligini oshiradi, jamoaviy mas’uliyatni kuchaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mahallalar mablag‘ining ochiq va shaffof sarflanishi, hisobdorlik mexanizmlarining kuchaytirilishi davlat moliyasi ustidan parlament nazoratini o‘rnatishda ham muhim instrumentdir. Shuningdek, fuqarolarning bevosita ishtiroki ta’minlanishi esa ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi.

Mahallalar infratuzilmasini takomillashtirish masalasi islohotlar dasturlarida faqat qurilish yoki obodonlashtirish vazifasi sifatida qo‘yilmagan. Gap, avvalo, mahallaning ijtimoiy va boshqaruv instituti sifatidagi rolini kuchaytirish haqida bormoqda.

Shu bilan birga, mahalla mablag‘i sarfida ochiq hisobdorlikni joriy etish institusional jihatdan juda muhim qadam. Natijada fuqarolar davlat qarorlarining passiv iste’molchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi. Parlament nazorati nuqtayi nazaridan esa yangi mexanizmlar mahalliy darajada moliyaviy intizomni ta’minlashga xizmat qiladi.

Islohotlar dasturlarida davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish masalasiga alohida blok sifatida qaralgan. Asosiy e’tibor institutsional samaradorlik, hisobdorlik va ochiqlikka qaratilmoqda.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda xalq vakillari hay’ati ishtirokini joriy etish tashabbusi sud hokimiyatiga ishonchni oshiradi va sud qarorlarining jamoatchilikka yaqinlashuvini ta’minlaydi, adolat hissini kuchaytiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqishda faqat jinoiy javobgarlikni kuchaytirish bilan cheklanib qolinmaydi. Profilaktika, institutsional shaffoflik va raqamlashtirish alohida o‘rin tutadi.

Islohotlar dasturlarida har bir tashabbus uchun KPI belgilanishi va shaxsan javobgar rahbarlarning aniq ko‘rsatilishi davlat boshqaruvida juda muhim o‘zgarish. Bu orqali ijro natijasi shaxsiy mas’uliyat bilan bog‘lanadi, kollektiv javobgarlik ortida yashirinish imkoniyati kamayadi.

Umuman olganda, islohotlar dasturlari sohalar bo‘yicha emas, balki institutsional mantiq asosida qurilgan. Mahalladan boshlab markaziy davlat organlarigacha bo‘lgan butun boshqaruv tizimida natija, hisobdorlik va ochiqlik tamoyillari ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa davlat siyosatini qog‘ozda qoladigan rejalardan odamlar hayotida seziladigan o‘zgarishlar darajasiga olib chiqish imkonini beradi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2026-yilda amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturi mazmunan ham, shaklan ham mamlakatda davlat rejalashtirish madaniyatining yangi bosqichini anglatadi. Agar strategiya uzoq muddatli maqsad va yo‘nalishlarni belgilab bersa, davlat dasturi aynan shu maqsadlarni hayotga tatbiq etishning aniq, o‘lchanadigan va hisobdor mexanizmlarini qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, davlat dasturini davlat siyosatining “amaliy konstitutsiyasi” sifatida baholash mumkin.

Davlat dasturida 337 ta aniq chora-tadbir belgilab berilgani birinchi qarashda hajm jihatidan katta ko‘rinishi mumkin. Ammo mazmunga teranroq nazar tashlasak, bu raqam ortida islohotlarni sohalar bo‘yicha bo‘lish emas, balki ularni aniq vazifalar, muddatlar va ijrochilarga bog‘lash mantig‘i turibdi.

Shu bilan birga, 2026-yilda 59 ta sohaviy va 12 ta eng muhim strategik islohotlarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi rejalashtirilgani qonunchilik jarayonining ham rejali va tizimli tus olayotganidan dalolat beradi. Bu yerda qonun ijodkorligiga islohotlarni ortidan “yetib olish” vositasi emas, balki ularni oldindan ta’minlovchi institutsional asos sifatida qaralmoqda.

Davlat dasturi loyihasining keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi islohotlarning eng muhim institutsional jihatlaridan. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali 5 milliondan ziyod foydalanuvchi loyiha bilan tanishgani, 22 mingdan ortiq taklif va fikr bildirilgani bu raqamlar faqat statistika emas, balki jamiyatning davlat qarorlariga befarq emasligi, aksincha, faol ishtirok etishga tayyor ekanini ko‘rsatadi.

Bu jarayonda muhokama formal “izoh qoldirish” bosqichidan chiqib, haqiqiy siyosiy muloqot shakliga aylandi. Oliy ta’lim tashkilotlari va davlat idoralarida o‘tkazilgan 50 dan ortiq muhokamada 10 mingga yaqin talaba, professor-o‘qituvchilar va davlat xizmatchilari ishtirok etgani esa ilmiy-ekspert salohiyatining qaror qabul qilish jarayoniga jalb etilganini anglatadi.

Muhokamalar natijasida 1000 ga yaqin taklifning davlat dasturi loyihasiga kiritilgani jamoatchilik ishtiroki deklaratsiya darajasida qolmaganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik uchun jazoni kuchaytirish, pedofiliya uchun umrbod ozodlikdan mahrum etish kabi tashabbuslar jamiyatda adolat va xavfsizlikka talabning yuksakligini aks ettiradi.

Ipoteka va elektromobil xaridi uchun kredit mexanizmlarini takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashni yangi bosqichga olib chiqish kabi takliflar esa iqtisodiy va institutsional islohotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda xalq vakillari hay’ati ishtirokini joriy etish tashabbusi sud hokimiyatini jamoatchilikka yaqinlashtirish, adolatni faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy qadriyat sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokamalarda mahalla mablag‘i sarfi bo‘yicha ochiq hisobdorlikni yo‘lga qo‘yish, ichki yo‘llar, piyodalar va velosiped yo‘laklari yotqizish, biznes-inkubatorlar barpo etish kabi takliflarning qiziqarli deb topilgani jamiyatda quyi darajadagi islohotlarga ehtiyoj katta ekanini ko‘rsatadi.

Bu takliflar mamlakat taraqqiyoti faqat markaziy qarorlar bilan emas, balki mahalliy tashabbuslar orqali ham ta’minlanishi mumkinligini anglatadi. Mahalla aynan shu ma’noda davlat siyosati uchun “lakmus qog‘ozi” vazifasini bajaradi.

Davlat dasturini ishlab chiqish jarayonida xorijdagi vatandoshlar bilan o‘tkazilgan muloqotlar alohida ahamiyatga ega. AQSH, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Kanada, Janubiy Koreya, Yaponiya, Shvetsiya, Portugaliya va Qozog‘istonda tashkil etilgan muhokamalarda 60 ga yaqin qo‘shimcha taklif olingani O‘zbekistondagi islohotlarning global tajriba bilan uyg‘unlashayotganini ko‘rsatadi.

Bu takliflar orasida nodavlat maktablar faoliyati uchun shaffof litsenziyalash mexanizmlarini joriy etish, ta’lim amaliyotida korxona mutaxassislarini rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish, sog‘liqni saqlashda yagona raqamli skrining tizimini joriy etish kabi tashabbuslar alohida e’tiborga loyiq.

Xorijdagi vatandoshlar ilgari surgan “natijaga bog‘langan imtiyoz” (performance-based subsidy) modeli va “Export-as-a-service” konsepsiyasi iqtisodiy siyosatda sifat o‘zgarishini anglatadi. Bu yerda davlat qo‘llab-quvvatlovi formal imtiyoz emas, balki aniq iqtisodiy natijalar bilan bog‘lanadi.

Eksport qiluvchi korxonalar uchun logistika, bojxona, sertifikatlash, marketing va to‘lov masalalarini yagona operator orqali kompleks xizmat sifatida taqdim etish tashqi bozorlarga chiqishdagi institutsional to‘siqlarni kamaytiradi. Bunday yondashuv kichik va o‘rta biznes uchun ham yangi imkoniyatlar ochadi.

Umuman olganda, davlat dasturi va uni ishlab chiqish jarayoni davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi. Davlat qaror qabul qiluvchi yagona subyekt emas, balki jamoatchilik, ekspertlar va xorijdagi vatandoshlar bilan hamkorlikda harakat qiluvchi institutga aylanmoqda.

Bu esa islohotlarning legitimligi, ijtimoiy qabul qilinishi va barqarorligini ta’minlaydi. Davlat dasturi aynan shu jihati bilan 2026-yilgi islohotlarning eng muhim institutsional ustuni sifatida namoyon bo‘ladi.

2026-yilga mo‘ljallangan islohotlar dasturlari va davlat dasturi mazmunini chuqur tahlil qilar ekanmiz, ular markazida umumiy g‘oya turganini ko‘ramiz — bu inson qadri. Ushbu tushuncha so‘nggi yillarda davlat siyosatining bosh mezoniga aylangani tasodifiy emas. Chunki barqaror taraqqiyot, kuchli iqtisodiyot yoki samarali davlat boshqaruvi, eng avvalo, insonning farovon hayoti, ijtimoiy himoyasi va adolatga ishonchi bilan chambarchas bog‘liq.

Bosh qonunimizda mamlakatimiz “ijtimoiy davlat” sifatida belgilab qo‘yilgani bejiz emas. Ijtimoiy davlat faqat nafaqa yoki moddiy yordam berish tizimi emas, balki davlatning fuqaro oldidagi ma’naviy va huquqiy mas’uliyatini anglatadi. 2026-yildagi islohotlar aynan shu mas’uliyatni aniq mexanizmlar orqali ta’minlashga qaratilgan.

2026-yilga mo‘ljallangan islohotlar dasturlari va davlat dasturi umumiy mantig‘ini tahlil qilar ekanmiz, davlat, jamiyat va shaxs o‘rtasida yangi muvozanat shakllanayotganini ko‘ramiz. Davlat o‘zini faqat nazorat qiluvchi yoki tartib o‘rnatuvchi institut sifatida emas, balki sherik, himoyachi va imkoniyat yaratuvchi subyekt sifatida namoyon etmoqda.

Bu muvozanatda mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari, ekspertlar va xorijdagi vatandoshlar ham faol ishtirok etmoqda. Natijada islohotlar “yuqoridan quyiga” tushiriladigan qarorlar emas, balki jamiyat bilan hamkorlikda shakllanadigan jarayonga aylanmoqda.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Dasturlar ijrosini moliyalashtirish uchun ajratilayotgan 250,5 trillion so‘m va jalb qilinayotgan 50,4 milliard dollarning samarali sarflanishi davlat siyosatiga ishonchni belgilaydigan muhim omil. Shu bois, Adliya vazirligi va Hisob palatasi tomonidan doimiy monitoring yuritilishi, Vazirlar Mahkamasida har chorakda ijroni muhokama qilish, parlamentga hisobot taqdim etish mexanizmlari qo‘llanmoqda. Bu tizim ijro jarayonida ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlab, islohotlarning qog‘ozda qolib ketish xavfini kamaytiradi.

Ushbu hujjatlar yurtimizda davlat siyosati sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi. Bu bosqichda asosiy mezon inson hayotida seziladigan aniq natijalardir.

Yangi ish o‘rinlari, aholi daromadining o‘sishi, ijtimoiy himoyaning kuchayishi, adolat va ishonch muhitining mustahkamlanishi, islohotlarning haqiqiy samarasi aynan shu yerda namoyon bo‘ladi. Davlatimiz rahbari belgilab bergan har bir qaror, har bir dastur, avvalo, odamlar roziligida o‘z aksini topishi shart. Ana shu tamoyil 2026-yilgi islohotlarning ham, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining ham bosh mezoni bo‘lib qoladi.

YANGI O‘ZBEKISTON
yuz.uz_news
yuz.uz_news

Islohot odimlari

TEXNOLOGIK SAKRASH

Ohangaronning yangi va zamonaviy sanoat qiyofasida aks etmoqda

Mamlakatimizdagi eng yirik sanoat korxonalari haqida gap borganida birdaniga xayolimizga Toshkent viloyati keladi. Hudud avvaldan nafaqat so‘lim tabiati va sayyohlik salohiyati, balki sanoatlashgan manzil sifatida nom taratgan. Ammo uzoq yillar davomida bu imkoniyatlardan deyarli foydalanilmadi. Mavjud korxonalar ham ishlay olmasdan, uzoq yillar tashlandiq qoldirilgani haqiqat. Bir necha yil oldin yurtimizda xususiylashtirish jarayonlari faollashgan dastlabki davrlarda shunday yirik korxonalarning bir nechtasiga borganimiz yodimda. Ulkan quvvatga ega, yirik ishlab chiqarish zavodlari mutlaqo qarovsiz, kimsasiz maskanga aylangandi.

Imkoniyat va sharoit bo‘lmagani hududning iqtisodiy holatida ham yaqqol aks etdi. Toshkent viloyati poytaxtimizga eng yaqin, gigant korxonalar manzili bo‘lishiga qaramay, yaqin yillargacha rivojlanishdan ortda qolayotgan hudud sifatida tilga olinardi. Sanoat imkoniyatlari nafaqat mamlakat iqtisodiyoti rivoji, balki aholi turmush tarzini yaxshilashga ham ta’sir ko‘rsatmasdi.

Hozir Toshkent viloyatidagi o‘zgarishlar hamda umumiy taraqqiyot qiyofasiga qarab turib, hududdagi faol islohotlar 2017-yildan keyin boshlanganiga ishonish qiyin. Ammo davlatimiz rahbarining qat’iy irodasi bilan qisqa vaqtda viloyat tub o‘zgarishlarga yuz burdi. Hududda mutlaqo yangi imkoniyatlar ochilib, uzoq yillar davomida ishlatilmay kelgan ulkan salohiyat, yer osti va yer usti boyliklari, sanoat quvvati, mehnatkash xalqining bor imkoniyatlari to‘la ishga solinyapti. Toshkent viloyati yana mamlakatimizdagi eng yirik sanoatlashgan hudud sifatida tilga olinyapti, faqat bu gal ko‘lam ham, ko‘rsatkichlar ham, loyihalar ham ancha ulkan.

Bunga doir misollar talaygina. So‘nggi sakkiz yilda viloyatga 10 milliard dollarlik hududiy va 8 milliard dollarlik tarmoq investitsiyalari jalb qilinganining o‘ziyoq yangi quvvatlar haqida tasavvur hosil qiladi. Bularning hisobiga hududda 10 mingga yaqin sanoat, savdo va servis korxonasi ochildi. Ma’lumotlarga ko‘ra, oxirgi uch yilda yillik aylanmasi 10 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan korxonalar soni 1,8 baravar ko‘paydi, 100 milliard so‘mdan ziyod aylanmaga ega korxonalar soni esa qariyb 200 taga yetdi. Har yili yuzlab yangi loyihalar ishga tushirilyapti.

Bu taraqqiyotda har bir tumanning o‘z o‘rni bor. Masalan, viloyatning Ohangaron tumani hududi oltin, kumush, mis kabi qimmatbaho metallarga boy. Ammo yaqin yillargacha rivojlanishdan ortda qolgan, eng og‘riqli nuqtalardan biri edi. Ulkan yer maydoni, boy sanoat xomashyosi va chorvachilik uchun beqiyos tabiiy iqlimga ega bo‘lishiga qaramay, eng qoloq tumanlardan biri sifatida ko‘rilgan. Bugun esa Ohangaron viloyatning eng yirik industrial manziliga aylandi.

2016-yildan keyin kirib borgan islohotlar shiddati sabab hududda birin-ketin gigant sanoat korxonalari qad rostladi. Qurilish materiallari sanoati shu qadar rivojlandiki, bu yo‘nalishda ulkan klaster zanjiri hosil bo‘ldi. Ayniqsa, hududdagi tabiiy ma’danlar zaxirasi va mustahkam xomashyo bazasi elektrotexnika sanoatini rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratmoqda.

Joriy yilning 13-fevral kuni davlatimiz rahbari Toshkent viloyati Ohangaron tumaniga tashrifi davomida ana shunday yirik sanoat zonalaridan biri — “Eltech Industrial” texnoparkida bo‘ldi. Mazkur majmua elektrotexnika sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport geografiyasini kengaytirishga qaratilgan yirik sanoat klasteriga aylanmoqda. Texnopark to‘rtta hududdan iborat bo‘lib, umumiy maydoni 362 gektarni tashkil qiladi. Hozirgi kunda 4 ta loyiha ishga tushirilgan, 27 ta loyiha shakllantirilgan. Umumiy qiymati 797 million dollar bo‘lgan korxonalarda minglab yangi ish o‘rinlari yaratish va salmoqli eksport hajmiga erishish rejalashtirilgan.

Jumladan, texnoparkda elektrotexnika sanoatining yirik ishlab chiqarish quvvatlari joylashgan. Kabel mahsulotlaridan tortib, maishiy texnikalargacha ishlab chiqariladi. Prezidentimizning mazkur zamonaviy korxonaga tashrifi bu obyektning mamlakatimiz sanoati siyosatidagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Davlatimiz rahbari texnoparkdagi loyihalar bilan tanishish davomida elektrotexnika sanoatini iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylantirib, ko‘rsatkichlarni kelgusida o‘n milliard dollarga yetkazish, buning uchun ichki va tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallash, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda soha uchun yetuk, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratish zarurligini ta’kidladi.

70 ming tonna mahsulot, 800 ta yangi ish o‘rni

Bugun elektrotexnika sanoati dunyoda eng rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Xalqaro tahlillarga ko‘ra, 2025-yilda elektrotexnika xizmatlari bozori hajmi 135 milliard dollardan oshgan va keyingi yillarda o‘rtacha 5 foizli o‘sish saqlanib qolishi kutilyapti. Bunday ijobiy tendensiyani yurtimiz sharoitida ham ko‘rishimiz mumkin. Xususan, so‘nggi yillarda mamlakatimiz elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarish hajmi 8,1 barobar oshib, umumiy sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,5 foizga yetdi. Ayni paytda sohada mingdan ortiq kichik va o‘rta korxona faoliyat yuritayapti. Ularda 52 mingdan ziyod aholi band.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ohangaron tumani elektrotexnika sanoati uchun zarur bo‘lgan xomashyo bazasiga boy. Birgina mis xomashyosi ishlab chiqarish bo‘yicha keyingi yillarda jahonning yetakchi davlatlari qatoriga qo‘shilganimiz imkoniyatlarni yaqqolroq namoyon etadi. Mahalliy korxonalar ham bundan unumli foydalanishga intilyapti. Texnoparkda ishga tushirilgan loyihalar doirasida mis quvurlar va fitinglar, mikroprotsessor modullari va sim-kartalar, yuqori kuchlanishli kabellar hamda maishiy texnika mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Davlatimiz rahbari texnoparkda ishga tushirilayotgan bir necha yangi quvvat bilan tanishdi. Ular orasida mamlakatimizda mis quvurlari va fitinglar ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha yetakchilik qilayotgan “Infinity Copper Group” korxonasi ham bor.

Anvar NODIRXONOV,
“Metal Processing technology” korxonasi rahbari:

— Korxonamizda to‘rtta ishlab chiqarish zavodi mavjud bo‘lib, ularning biri Ohangaron tumanidagi texnoparkda ochildi. Bu qiymat va ko‘lam jihatidan ancha yirik loyiha. Xitoy va Germaniya kompaniyalari bilan hamkorlikda texnopark hududidagi 10 gektar maydonda amalga oshirilyapti. Jarayonda 14,9 million dollarlik investitsiya o‘zlashtirildi. Ayni paytda qurilish ishlarining 90 foizi yakunlangan.

Faoliyatimiz mis quvurlar va fitinglar ishlab chiqarishga qaratilgan. Bunda narx va sifatga alohida e’tibor beriladi. Yangi zavod Yevropa va Xitoyning eng ilg‘or texnologiyalari asosida jihozlangan bo‘lib, energiyatejamkor va aniq ishlovchi uskunalar yordamida xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqariladi. Loyihaning umumiy qiymati 36 million dollar bo‘lib, uch bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda yillik 35 ming tonna hajmda mis quvurlar va fitinglar ishlab chiqarilib, 300 ta ish o‘rni yaratiladi. Ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish 50 ming tonnaga, uchinchi bosqichda esa 70 ming tonnaga yetkazilib, 800 kishining bandligi ta’minlanadi. Hozirgi kunda birinchi bosqich ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydik.

Davlatimiz rahbari korxonamiz faoliyati bilan tanishish davomida ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega sanoat mahsulotlari ulushini oshirish muhimligini ta’kidladi. Shu kabi zamonaviy, raqobatbardosh korxonalar sonini ko‘paytirish orqali ichki bozor ehtiyojini to‘liq qondirish va eksport salohiyatini yanada kengaytirish zarurligini aytdi.

Asosiy vazifamiz mahalliylashtirish ko‘rsatkichlarini oshirib borishga qaratilgan. Mahalliy sanoat korxonalari hisobiga bunga erishilayotgani quvonarli. Birgina korxonamiz misolida olsak, bugungi kunda mahsulotlarimiz import o‘rnini to‘liq bosadi. Masalan, yurtimizga o‘tgan yili 15 million dollarlik mis quvurlar va fitinglar import qilingan. Dastlabki bosqichdayoq 350 million dollarlik eksport qilish rejalashtirilgan. Mahsulotlar Birlashgan Arab Amirliklari, AQSH, Afrika qit’asi hamda Yevropa davlatlariga yetkazib beriladi.

Hozir ham asosiy xaridorlarimiz Yevropa va MDH davlatlari bo‘lib, mahsulotlarning 90 foizi eksport qilinyapti. Ilgari mis quvurlar va fitinglar yurtimizga asosan Yevropa va Xitoydan import qilingan bo‘lsa, hozir ichki bozorni to‘liq o‘zimiz ta’minlash quvvatiga egamiz.

Ikki yildan keyin loyihaning uchinchi bosqichini ham yakunlaymiz va ishlab chiqarish quvvati 70 ming tonnaga yetkaziladi. Yangi zavodimiz to‘liq ishga tushgach, yiliga 10 million dollarlik import o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilib, ichki bozordagi tannarxni 5 foiz tushirish kutilyapti.

Hamyonbop narx, yuqori sifat

Keyingi yillarda O‘zbekiston elektrotexnika sanoati sezilarli darajada rivojlandi. Gap faqat sonda emas, sifat jihatidan ham ichki va tashqi bozorda xaridorlar ishonchini qozonmoqda. Har kuni duch keladiganimiz elektron uskunalarning aksari bugun milliy brendlarimiz ostida ishlab chiqarilayotgani odamni quvontiradi. Ayniqsa, maishiy texnika bozorida hozir milliy mahsulotlarimiz xaridorgirlik jihatidan uncha-muncha xorij brendinikidan ustunlik qilmoqda. Chet mamlakatlar bozorida ham talabgirligi yuqori ekaniga guvoh bo‘lyapmiz.

Bu mazkur sanoat tarmog‘i rivoji uchun keng yo‘l ochilib, barcha imkoniyatlar yaratib berilgani, mahalliy tadbirkorlarimiz esa katta bozor hamda raqobatda o‘rin egallash uchun tinimsiz harakat qilayotganining mahsuli. Bundan o‘n yillar oldin ichki bozorda maishiy texnika ishlab chiqaradigan

bitta mahalliy brend nomini bilardik. Unga ham ishonchimiz yo‘q, sifati borasida ancha past baho berganimiz hozirgacha yodimda. Bugun esa o‘nlab mahalliy brendlar mavjud va aksari narx hamda sifat borasida xorijnikidan qolishmayapti. Ko‘pchiligimiz bozorda o‘zimizning brendni tanlayapmiz. Arzon bo‘lgani uchun emas, sifati sabab.

Ohangarondagi texnoparkda davlatimiz rahbari zamonaviy elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarilayotgan “Premier” korxonasida ham bo‘ldi. Prezidentimiz ish jarayoni, mahsulotlari sifatini ko‘zdan kechirib, mutaxassis va ishchilar bilan suhbatlashdi. Shu yerning o‘zida korxonaning 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish dasturi taqdimot qilindi.

Saidmuxtor SAINURIDDINOV,
“Premier” korxonasi rahbari:

— Bu korxonamizning ikkinchi yirik zavodi

hisoblanadi. 2023-yilning avgust oyida davlatimiz rahbari sovitkichlar ishlab chiqarish zavodimizga tashriflari chog‘ida yangi loyihamiz uchun yer maydoni ajratish topshirig‘ini bergan edi. Texnopark hududidan 10 gektar yer ajratilganidan so‘ng o‘n oy ichida zavodni qurib bitkazib, ishga tushirdik. Ayni vaqtda 11,3 million dollar investitsiya o‘zlashtirilgan.

Loyiha Birlashgan Arab Amirliklarining “Fajr Al Mustaqbal General Trading” korxonasi bilan hamkorlikda amalga oshirilyapti, umumiy qiymati 30 million dollarni tashkil qiladi. Jarayonda 250 ta yangi ish o‘rni yaratilib, 4 million dollar eksport qilish ko‘zda tutilgan. Mahsulotlar asosan Ozarbayjon, Qozog‘iston, Tojikiston, Rossiya, Qirg‘iziston, Afg‘oniston kabi davlatlarga eksport qilinadi.

Hozirgi kunda korxonamiz ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha O‘zbekistonda ikkinchi o‘rinda turadi. Markaziy Osiyo bo‘yicha ham shunday yirik korxonalar orasida yetakchilik qilyapmiz. Bu ishlab chiqarish quvvatlarimiz shunga yarasha ekani, ichki bozor talablarini qondirish imkoniyatimiz yuqoriligini ko‘rsatadi. Kelgusida texnoparkdagi majmua to‘liq ishga tushishi hisobiga 87 million dollarlik import o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilishi kutilyapti.

2021-yilda tashkil etilgan korxonamiz uchun bu katta natija. Ammo maqsadlarimiz bundan-da baland. Chunki yurtimizda tadbirkorlar, xususan, elektrotexnika sanoati rivoji uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgani biz kabi ishlab chiqaruvchilarni quvvatlarni bir necha barobar oshirishga undayapti. Ayni paytda yana 4 ta yangi zavod qurish loyihasi ustida ishlayapmiz. Yangi bozorlarga kirib borib, eksport ko‘rsatkichlarini karrasiga oshirishni maqsad qilganmiz. Davlatimiz rahbari bu borada bir qancha ko‘rsatmalar berdi. Ularni bajarish uchun barcha imkoniyatlarimiz bor.

Qolaversa, mahsulotlar turi, sifati va narxi borasida doimiy izlanishdamiz. Boisi, brendimiz premium sifatdagi mahsulotlarni hamyonbop narxlarda yetkazib berishi bilan xaridorlar ishonchini qozonib kelmoqda. Sifat va zamonaviy dizayn uyg‘unligi, hududlarda servis xizmatlarini ko‘rsatish uzluksizligi ta’minlangani uchun brendimiz qisqa vaqtda bozorda mustahkam o‘rin egallashga erishdi. Endilikda yanada ko‘proq yangi bozorlarga kirib borish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishni maqsad qilganmiz.

Texnoparkdagi loyihamiz bu jarayonda eng yiriklaridan biri bo‘ladi. Chunki bu yerda imkoniyatlar kengligi, infratuzilma uzluksizligi, lokatsiya jihatidan barcha viloyatlarga qulay joylashuv ishimizni yanada jadallashtiradi.

* * *

Bugun dunyoni elektronika vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Qo‘limizdagi mobil qurilmadan tortib, har kuni foydalanadiganimiz kompyuter texnologiyalari, avtomobillar, maishiy texnika, elektr energiyasi va aloqa tarmoqlari simlarining bari elektrotexnika sanoati mahsulotlaridir. Ana endi ushbu tarmoqqa bo‘lgan talabni tasavvur qilavering. Uning rivojlanishi esa bevosita mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari bilan bog‘lanayotganining boisi shunda.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“OSTONADAGI IMKONIYATNI OLISDAN QIDIRIB YURGAN EKANMAN”

Tomorqa – daromad manbai

Bu ish aslida uncha qiyin emas. Lekin juda oson ham deb bo‘lmaydi. Boisi, bor imkoniyatdan vaqtida foydalanish hammaning ham xayoliga kelmaydi. Akmal aka ham ishsiz edi. Oila qurib, farzandlari voyaga yeta boshlagach, tashvishi ham ortdi. Ro‘zg‘orning kami bitmas, doim bir cheti kemtik bo‘lib qolardi. O‘zicha turli rejalar tuzdi. Yaqin-atrofdagi tanishlardan maslahat so‘rab, ish qidirgan bo‘ldi. Lekin qishloq joyda tayinli yumush topilmadi.

Chorva bilan shug‘ullanishga pul kerak. Dehqonchilik qilish uchun yer zarur. Xullas, hech biriga shunchaki erishib bo‘lmaydi. Tengqurlaridan biri chet elga borib ishlash taklifini aytdi. “U yerda qurilishda ishlab, yaxshi oylik olish mumkin”, dedi hamqishlog‘i. Akmal aka bir yilda yaxshigina jamg‘arma bilan qaytishini o‘ylab ketishga ham chog‘landi. Lekin uyda o‘tirib xayol boshqa, amal boshqa ekanini o‘yladi. Sovuq o‘lkada tinim bilmay ter to‘kmasa, bekorga cho‘ntak “semirmaydi”. Qolaversa, chetga ketganlarning hammasi ham boyib ketgani yo‘q. Yillab yiqqani bir shaldiroq aravadan ortmayotganini ko‘rib turibdi. Xorij safari ham bekor bo‘ldi. Yaxshisi qishloqda biror ish bilan mashg‘ul bo‘lganim ma’qul degan qarorga keldi.

Shu orada Akmal aka qo‘shni qishloqdagi xolasining holidan xabar olgani bordi. Xolasi gullarga qiziqishini yaxshi bilardi. Ammo bunchalik deb o‘ylamagan ekan. Ko‘rib hayratda qoldi. Kattagina issiqxonaga ekilgan turli xonaki gullar ko‘zni quvontiradi. Har birining o‘z rangi, xushbo‘y hidi bor. Xolasi mehr bilan parvarish-lamoqda. Akmal ham bolaligidan tabiiy gullarga qiziqardi. Shu bois, bu ishga havasi ortdi. Har bir gul haqida ma’lumot olishga intildi. Qay biri qanday gullashidan tortib, qay rangga kirishiga qadar savolga tutdi. Shu paytda ikki-uch kishi: “Gulchi momoning xonadoni shumi?” deya so‘rab keldi. Yo‘qlab kelganlar xaridorlar ekan. Bir zumda savdo boshlandi. Mijozlar o‘ziga kerakli ko‘chatlarni olib, xolaning qo‘liga bir dasta pul tutqazdi. Ayol jiyaniga uzatib, pulni sanab berishni iltimos qildi.

Bir soatlar atrofida shu holat takrorlanib, uch-to‘rt xaridor kelib-ketdi. Akmal aka shunchaki qiziqish uchun qilingan ish deb o‘ylagani daromad manbai ekanini endi tushungandi. Yigitda gulchilik bilan shug‘ullanish ishtiyoqi tug‘ildi. Xolasidan maslahat olib, kechiktirmay uyida ish boshlaydigan bo‘ldi.

Ertasi kuni olib kelgan gul urug‘larini ekishga kirishdi. Surishtirsa, o‘zi yashayotgan Kasbi tumani Denov mahallasida biror kishi bu ish bilan shug‘ullanmas ekan. Akmal aka vaqtni ketkazmay shaharga borib, turli hajmdagi gul tuvaklarini olib keldi. Mehr qo‘yilgan ishda unum bo‘ladi. Tezda yigit bu borada tajriba orttirdi. Qiziquvchilar gul so‘rab keladigan bo‘ldi. Avvaliga sovuq kunlari nihollar ayvonda saqlandi. Vaqt o‘tgani sari joy torlik qilib, issiqxona qurish ehtiyoji tug‘ildi. Ammo bunga mablag‘i yetmasdi. Akmal aka mahallaga bordi. Hokim yordamchisi tashabbusi bilan unga 15 million so‘m imtiyozli kredit ajratildi. Bu mablag‘ga yigit hovlisidagi bir sotix yerga issiqxona qurdi.

— Ostonadagi imkoniyatni olisdan qidirib yurgan ekanman, — deydi Akmal Panjiyev. — Izlagan imkon topar, deya bejiz aytilmagan ekan. Shu paytgacha tomorqadan unumli foydalanish haqida bosh qotirib ham ko‘rmagandim. Issiqxona qurgach, sharoitimiz yaxshilandi. Shu yerning o‘zida nihollarni ko‘paytirishni yo‘lga qo‘ydik. Oilaviy mehnat qilamiz. Hozir 80 dan ortiq turdagi 2000 ga yaqin gul ko‘chatimiz bor. Bu — kam xarajat qilib, ko‘p daromad topadigan ish. Misol uchun, issiqxona tabiiy usulda isitiladi. Gullarni o‘zimiz urug‘idan, qalamchasidan o‘stiramiz. Qaysi hududda noyob gul haqida eshitib qolsam, albatta, olib kelishga harakat qilaman. Biror joydan sotib olmaymiz. Shu yerning o‘zida ko‘paytiramiz. Xaridorlar o‘zi olib ketadi. Hozir bir tupi 5000 dan 500 ming so‘mgacha sotiladigan gullarimiz bor. Bahorda yanada ko‘payadi. Mehnatimiz ortidan kam bo‘lganimiz yo‘q. Ish boshlaganimizga ikki yil bo‘ldi. Shuning ortidan turmushimiz farovon.

Akmal Panjiyevning izlanishi natija berib, bugun muntazam ish va yaxshi daromadga ega bo‘ldi. Ilgarigidek bekor o‘tirgani yo‘q. Qo‘li qo‘liga tegmay gul ko‘chatlarini ko‘paytirmoqda. Daromadi ortidan kreditini muddatidan oldin to‘ladi. Bundan tashqari, yaqinda yemakxona ham ochdi. Unda turmush o‘rtog‘i doimiy ish bilan band.

— Bir sotix yerdan bir oyda o‘rtacha 5-6 million so‘m daromad topayotganimizni aytsam, ko‘pchilik ishonmaydi. Ba’zilar qiziqadi. Shunda kelib ko‘rishlarini tavsiya qilaman, — deydi Akmal Panjiyev. — Biz tomonlarda yer ko‘p. Faqat foydalanishni bilish kerak. Yoshlar ish izlab uzoqqa ketadi. Qishloqdoshlarimizga ham shu yo‘nalish bo‘yicha ishlashni taklif qilyapman. Ba’zilari xohish bildirgan. Kelgusida qishlog‘imizda gulchilar ko‘payishi tarafdoriman. Barcha ishli, daromadli bo‘ladi. Oilalarga xotirjamlik, fayzu baraka kiradi.

Bugun o‘z ishining ustasiga aylangan Akmal Panjiyev gulchilik tarmog‘ini yanada kengaytirish istagida. Joriy yil yakuniga qadar hovlisida yana bitta issiqxona qurmoqchi. Unda gul ko‘chatlarini yanada ko‘paytirishni maqsad qilgan. Natijada qo‘shimcha ikkita ish o‘rni ochiladi. Bundan tashqari, yil yakuniga qadar qo‘shnilarini ham gul yetishtirishga o‘rgatib, avval ko‘chani, keyingi yillarda Denov mahallasini gulchilikka ixtisoslashtirmoqchi. O‘zi hozir bir sotix yerdan yil davomida 70-80 million so‘m topmoqda. Kelgusi yili shuni bir barobar oshirishni maqsad qilgan. Asosiysi, gul savdosi ortidan ro‘zg‘orga har kuni baraka kirmoqda. Halol mehnat orqali, hovlidan chiqmay, har kuni pul sanashning gashti boshqacha ekanini Akmal Panjiyev kabi mehnatkashlar yaxshi biladi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ilmiy-tadqiqot muassasalarida

Jahon iqtisodiyoti va sanoati jadal rivojlanayotgan bugungi sharoitda yangi avlod materiallar yaratish, ularning funksional xossalarini yaxshilash va ekologik xavfsizligini ta’minlash eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Polimerlar va ular asosida mahsulotlar jahon iqtisodiyotining ajralmas va muhim qismidir. Sanoat va xalq xo‘jaligining deyarli barcha sohasida polimer materiallar qo‘llanilmoqda. Ular yuqori mexanik mustahkamlik, yengillik, arzonlik, korroziyaga chidamlilik, turli muhitlarga moslashuvchanlik kabi afzalliklari bilan ajralib turadi.

POLIMER FANI VA SANOATI

yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida hozirgi global iqtisodiyotda raqobatga chidamli bo‘lish uchun malakali kasb egalari va mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani aytildi. Yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan elektronika va elektrotexnika, biokimyo va polimerlar, farmatsevtika, mashinasozlik kabi sohalarni rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni olib kirish, kadrlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga tayyorlash kabi masalalarga urg‘u berildi. Bu kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollardan oshirish maqsadini ro‘yobga chiqarishda qo‘l keladi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti direktori Abdumutolib Ataxonov bilan suhbatimiz polimerlar dunyosining bugungi manzaralari xususida bo‘ldi.

— O‘tgan asrning 50-yillariga kelib, dunyo miqyosida polimer fani va polimer sanoati rivojlana boshladi, — deydi A.Ataxonov. — Respublikamizda tabiiy polimerlar va ularning hosilalari yo‘nalishini rivojlantirish uchun yetarli va barqaror xomashyo zaxiralari mavjud. Jumladan, paxtani qayta ishlash korxonalarida shakllanadigan chiqindi paxta linti hamda ipak sanoati korxonalarida hosil bo‘ladigan ipak qurti g‘umbagi va turli tolali chiqindilar tabiiy polimerlar ishlab chiqarish uchun muhim manbadir. Bular yurtimizda tabiiy polimerlar yo‘nalishini kompleks va uzluksiz rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, paxtachilik sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, uni qayta ishlash jarayonida katta miqdorda paxta momig‘i shakllanadi. Bu esa sellyuloza olish uchun noyob va arzon xomashyo manbai hisoblanadi. Bugungi kunda respublikamizda mavjud paxta momig‘i asosida kimyoviy qayta ishlash va qog‘oz sanoati uchun sellyuloza olish usullari hamda texnologiyalari muvaffaqiyatli o‘zlashtirilgan. Ushbu texnologiyalar mahalliy xomashyodan yuqori sifatli mahsulot olish, importga talabni kamaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Ipak sanoatida shakllanadigan ipak qurti g‘umbagi va tolali chiqindilar ham tabiiy polimerlar ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega. Ushbu xomashyo asosida xitin, xitozan, oqsil hamda suyuq organomineral o‘g‘itlar olish va ishlab chiqarish texnologiyalari yaratilgan. Xitin va xitozan kabi biopolimerlar ekologik xavfsizligi, biologik mosligi va yuqori faolligi bilan ajralib turib, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot va ekologiya sohalarida keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekistonda sintetik polimerlar ishlab chiqarish sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Polietilen, polipropilen hamda polivinilxlorid ishlab chiqaruvchi Sho‘rtan gaz-kimyo kompleksi, “Uz-Kor Gas Chemical”, “Navoiyazot” kabi qator yirik korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ularning yillik ishlab chiqarish quvvati 100 ming tonnadan ortiqni tashkil etadi.

Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida so‘nggi yillarda qator muhim natijalarga erishildi. Fan sohasida olib borilayotgan fundamental tadqiqotlar tarkib — tuzilish — xossa o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Bu yo‘nalishda olingan natijalar sintetik va tabiiy polimerlar hamda ularning hosilalari asosida polimer materiallar shakllanishining ilmiy va amaliy asoslarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Nanotexnologiyalar asosida yaratilgan nanomateriallar yuqori mexanik mustahkamlik, yuksak kimyoviy barqarorlik va maxsus funksional xossalarga ega bo‘lib, bu ularni qishloq xo‘jaligi, tibbiyot va energiya sohalarida keng qo‘llash imkonini beradi.

— Sohada so‘nggi yillarda e’tiborga molik qanday ilmiy yutuqlar kuzatildi?

— Quyosh energiyasidan samarali foydalanish yo‘nalishida Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida respublikamizda birinchilardan bo‘lib perovskitlar asosida III avlod quyosh batareyalarini shakllantirishning fundamental asoslari ishlab chiqildi. Ushbu texnologiyalar nafaqat quyoshdan energiyani samarali olish imkonini beradi, balki ularning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, energiya tejamkorligi va ekologik xavfsizligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu quyosh batareyalari muqobillariga nisbatan yuqori samaradorligi, yengilligi va qo‘llanishda qulayligi bilan ajralib turadi.

Iqtisodiyotimizning muhim yo‘nalishlardan biri hisoblangan qishloq xo‘jaligida ham fundamental va amaliy tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Jumladan, mahalliy xomashyolardan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini kapsullash uchun polimer tarkibli “Uzxitan” preparatini ishlab chiqarish usuli va texnologiyasi yaratildi. Ushbu preparat institutning tajriba-sinov bazasida yo‘lga qo‘yilib, mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirishda samarali vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Preparat qishloq xo‘jaligi, xususan, paxta chigiti va donli ekinlari urug‘iga qo‘llash orqali ularning kasalliklarga qarshi barqarorligini oshirib, hosildorlikni sezilarli darajada ko‘paytirish imkonini berdi. U turli iqlim sharoitida sinovdan o‘tkazilgan va yuqori samaradorlik ko‘rsatkichi bilan tasdiqlangan. So‘nggi 5 yilda ushbu preparat yordamida 7567 tonna chigit kapsulalandi. Kapsulalangan urug‘lar 247 ming 94 gektar maydonda ekilib, hosildorlik sezilarli darajada oshishiga erishildi. Preparat nafaqat hosildorlikni oshirish, balki urug‘larning saqlanish muddatini uzaytirish va kasalliklarga chidamliligini ta’minlashda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ular nafaqat tibbiyot muassasalarida kasalliklarni davolash yoki oldini olishda samarali vosita hisoblanadi, balki mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va import mahsulotlariga ehtiyojni kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Jumladan, o‘tkir respirator virusli kasalliklar va grippni davolashda qo‘llaniladigan polimer tarkibli “SelAgrip”ni olish texnologiyasi yaratilgan. Bu dori nafaqat kasalliklarning oldini olishda, balki epidemiya sharoitida tarqalishini cheklashda ham samaralidir.

Shuningdek, ko‘zda uchraydigan virusli kasalliklarni davolashga mo‘ljallangan polimer tarkibli “Glazavir” preparati viruslar ta’siriga qarshi samarali chora bo‘lib, tibbiyot muassasalarida keng qo‘llanilishi mumkin.

Bundan tashqari, jarrohlik amaliyotida polimer tarkibli “Geprotsel” preparati qon ketishini samarali nazorat qilish imkonini berdi. Tibbiyot sohasida chet el olimlari bilan hamkorlikda tabiiy polimer hosilalari va kumush nanozarrachalari asosida gidrogellar yaratildi. Bu gidrogellar yallig‘langan yaralarni yuqori samarali davolash imkoniyatini beradi va tibbiyot muassasalarida innovatsion davolash vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Gidrogellar polimer materiallarning tibbiy sohadagi qo‘llanishini kengaytirib, mamlakat tibbiyotida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga katta hissa qo‘shadi.

Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida import orqali kirib kelayotgan va tarkibida xlor bo‘lgan, yoqimsiz hidli hamda nisbatan toksik dezinfeksiya vositalarini almashtirishga qaratilgan innovatsion ishlanmalar qilinmoqda. Respublikamizda birinchi marotaba nanotexnologiyalar asosida yaratilgan polimer tarkibli “Poliardez” mahalliy dezinfeksiya vositasi shular sirasidan. U mahalliy xomashyolardan tayyorlanib, rangsiz, hidsiz, xlor tutmagan va toksik emasligi bilan ajralib turadi. “Poliardez”ning eng katta afzalligi shundaki, u nafaqat xlorli dezinfeksiya vositalari o‘rnini bosa oladi, balki inson va atrof-muhit uchun zararsiz bo‘lib, iste’molchilar salomatligini muhofaza qiladi. Ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijasida yaratilgan ushbu innovatsion polimer mahsulot sanoat korxonalari, tibbiyot muassasalari hamda ta’lim muassasalarida qo‘llanilishi mumkin.

— Bugungi kunda polimer chiqindilar global muammoga aylangan. Xususan, polietilen plyonkalar va boshqa sintetik polimerlar ko‘pincha parchalanmay, atrof-muhitga zarar keltirmoqda. Bunga qarshi choralar ko‘rilyaptimi?

— Polimer chiqindilarni qayta ishlash va biologik parchalanish xususiyatiga ega mahsulotlar yaratish ahamiyati ortib borayotgani sir emas. Biologik parchalanish xususiyatiga ega polietilen plyonkalar ishlab chiqish uchun maxsus “Bioparchalanuvchi kompaund” qo‘shimchasi tayyorlash texnologiyasi yaratilib, amaliyotga joriy qilindi. Bu texnologiya orqali tayyorlangan kompaund bioparchalanuvchi polietilen plyonkalar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi va natijada ekologik toza, bioparchalanuvchi polietilen qadoqlovchi mahsulotlari olish imkonini beradi. Bu turdagi plyonkalarni oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlarni qadoqlashda keng qo‘llash mumkin, shu bilan birga, ular atrof-muhitga tushadigan zararni kamaytiradi. Mazkur tadqiqotlar ekologik jihatdan toza va samarali texnologiyalar yaratish, mahalliy xomashyodan yuqori qiymatli mahsulot olish hamda polimer sanoatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bioparchalanuvchi polietilen plyonkalar, qishloq xo‘jaligi va tibbiy polimer preparatlar respublikada innovatsion tadqiqotlarning amaliyotga joriy qilinishi va iqtisodiy samaradorligini namoyon qiladi.

— Texnologiyalar jadallashuvi davrida xalqaro hamkorlik va eksport imkoniyatlari xususida to‘xtalsangiz.

— O‘zbekistonda ilm-fanga berilayotgan katta e’tibor natijasida ilmiy-tadqiqot muassasalarida, jumladan, Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy tadqiqot institutlarda moddiy-texnik bazaning rivojlanishi, ya’ni zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlanishi turli sohalarda katta yutuqlarga sabab bo‘lmoqda. Bu, o‘z navbatida, chet ellik olimlarni o‘zbekistonlik hamkasblari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar qilishga qiziqtirmoqda. Jumladan, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya, Italiya kabi davlatlar bilan qo‘shma loyihalar tanlovlari e’lon qilinishi va bu loyihalarning yuqori saviyada bajarilishi yangi ilmiy yutuqlarga erishish imkonini bermoqda. Bugungi kunda institutimizda Reding universiteti (Buyuk Britaniya), Vuppertal universiteti (Germaniya), Xemnis texnika universiteti (Germaniya), Xalqaro nazariy fizika markazi (Italiya), Firat universiteti (Turkiya) va boshqa ilm-fan markazlarining ilmiy jamoalari bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda polimer fani rivoji nafaqat ilmiy salohiyatni oshirish, balki rivojlangan davlatlar bilan integratsiyani mustahkamlash, yangi texnologiyalar va innovatsion mahsulotlar importini kamaytirish imkonini ham beradi. Shu orqali ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy qilish yo‘li bilan iqtisodiyotimizga muhim hissa qo‘shish mumkin. Yangi polimer materiallar ishlab chiqarilishi mahalliy korxonalarni modernizatsiyalash, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo‘llash imkonini beradi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

Inson qadri uchun

Har qanday jamiyatning taraqqiyoti uning bolalarga munosabati bilan o‘lchanadi. Zero, bola tarbiyasi bugungi kunning eng muhim mas’uliyatidir. Ayniqsa, zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki shunday xavf ostida bo‘lgan hamda ijtimoiy jihatdan og‘ir ahvolda yashab kelayotgan bolalarni himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash masalasi davlat va jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘Z VAQTIDA KO‘RSATILGAN E’TIBOR

MURG‘AK QALBLAR TAQDIRINI BUTUNLAY O‘ZGARTIRISHI MUMKIN

Himoyaga muhtoj bunday bolalar taqdiri o‘z vaqtida ko‘rsatilgan e’tibor orqali butunlay o‘zgarishi mumkin. Shu bois, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar hamda ularning oilalari uchun kompleks, manzilli va tizimli ijtimoiy xizmatlarni tashkil qilish bugungi kunda nafaqat ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi, balki strategik zaruratga aylanmoqda.

Muammoga faqat oqibatlar nuqtayi nazaridan emas, balki xavf omillarini barvaqt aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish va samarali profilaktika mexanizmlarini tizimli ravishda kuchaytirish orqali yondashish bugungi kunning muqarrar talabidir.

Ana shu ezgu maqsad yo‘lida mamlakatimizda bolalar huquq va qonuniy manfaatlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan, 2030-yilgacha mo‘ljallangan Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi qabul qilindi.

Hujjat bilan zo‘ravonlikdan jabrlangan, xavf ostida bo‘lgan hamda ijtimoiy jihatdan og‘ir ahvoldagi bolalarni erta aniqlash, ularga kompleks ijtimoiy, psixologik va huquqiy ko‘mak ko‘rsatish, shuningdek, profilaktika tizimini institutsional darajada takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. O‘z navbatida, ularning ro‘yobi bolalar manfaatlarini ustuvor qadriyat sifatida qaror toptirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur ustuvor vazifalarni hayotga tatbiq etish maqsadida hukumatning tegishli qarori qabul qilinib, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va ularning oilalari uchun yangi turdagi ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishning huquqiy, tashkiliy va moliyaviy mexanizmlari aniq va manzilli belgilandi.

Zo‘ravonlikdan jabrlangan, o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo‘lgan hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda yashab kelayotgan bolalar va ularning oilalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy xizmatlar tizimi yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Endilikda yordam faqat muammo yuzaga kelganidan keyin emas, balki bolaning ehtiyoji va xavf darajasidan kelib chiqqan holda tizimli va manzilli shaklda tashkil etiladi.

Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun olti oygacha bo‘lgan muddatga qisqa muddatli ijtimoiy xizmatlar joriy etilib, avvalo, bolaning xavfsizligini ta’minlash, ruhiy holatini barqarorlashtirish va oilaviy muhitni tezkor tarzda sog‘lomlashtirishga qaratilgan g‘amxo‘r mexanizmlar ishga tushiriladi.

Bundan tashqari, bir yilgacha bo‘lgan muddatga uzoq muddatli ijtimoiy xizmatlar majmui orqali bolaning barqaror rivojlanishi, sifatli ta’lim olishi va jamiyatga

Farid NAZAROV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi bo‘lim boshlig‘i

bolalarning oilalariga “Mehrli oila” xizmati “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan yo‘lga qo‘yiladi. Mazkur ijtimoiy xizmatning asosiy maqsadi voyaga yetmagan bolaning psixoemotsional holati va xulq-atvor xususiyatlarini chuqur inobatga olgan holda uning ota-onasi (yoki o‘rnini bosuvchi shaxslar) bilan buzilgan munosabatlarini tiklash, o‘zaro ishonch va muloqotni mustahkamlash hamda to‘laqonli ijtimoiylashuviga ko‘maklashuvchi “oilaviy terapiya” xizmatlarini ko‘rsatishdan iborat.

Bu yondashuv bolani nafaqat joylashtirish, balki uni mehr va mas’uliyatga asoslangan barqaror oila muhitida qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks g‘amxo‘rlik tizimini shakllantiradi.

Mazkur g‘oya va tashabbuslarni joylarda hayotga samarali tatbiq etish maqsadida Bolalarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy integratsiya markazi hamda uning Samarqand, Farg‘ona, Xorazm va Buxoro viloyatlarida mintaqaviy bo‘linmalari tashkil etildi.

Avvalo, markaz zo‘ravonlikdan jabrlangan, xavf ostida bo‘lgan va ijtimoiy jihatdan og‘ir ahvoldagi bolalarni jamiyatga to‘laqonli integratsiya qilish muammolarini o‘rganadi, tahlil qiladi va ularni hal etish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqadi.

Shuningdek, bolalarning psixoemotsional holatini barqarorlashtirish, xulq-atvorini

to‘laqonli moslashuvi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Zarur hollarda esa tunu kun ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar tashkil etilib, bola xavfsiz, mehrga to‘la muhitda yashashi va tiklanish jarayonini bosqichma-bosqich to‘liq o‘tashi ta’minlanadi.

Ayni paytda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish faqat davlat muassasalari doirasi bilan cheklanib qolmasdan, tadbirkorlik subyektlarini ham jalb etish mexanizmi joriy etilmoqda. Xususan, mazkur xizmatlar vaucher asosida tashkil etilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj bola uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘ to‘g‘ridan to‘g‘ri xizmat ko‘rsatuvchi subyektga yo‘naltiriladi. Bu tartib, bir tomondan, shaffoflik va samaradorlikni ta’minlasa, ikkinchi tomondan, bola va uning oilasiga xizmat ko‘rsatuvchini tanlash imkoniyatini berib, sifatli va manzilli yordamni ta’minlashga xizmat qiladi.

Eng muhimi, bunday inklyuziv yondashuv ijtimoiy himoyaga muhtoj har bir bola uchun keng qamrovli, manzilli va mehr-shafqatga asoslangan yordamni ta’minlab, ularning hayotiga yangi umid va barqaror kelajak baxsh etadi. Zero, bolaning haqiqiy himoyasi faqat uni xavfdan asrash bilan cheklanmaydi, bola uchun barqaror va sog‘lom oila muhitni yaratish orqali mustahkamlanadi.

Ana shuning mantiqiy davomi sifatida professional tutingan oilaga joylashtirilgan to‘g‘ri yo‘naltirish hamda professional tutingan ota-onalarni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy va psixoijtimoiy xizmatlarni tashkil etadi. “Mehrli oila” xizmatini yo‘lga qo‘yish, ushbu yo‘nalishda mutaxassislar tayyorlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ham markaz zimmasiga yuklanadi.

Bundan tashqari, davlat va nodavlat tashkilotlarga metodik yordam ko‘rsatish, bolalar va ularning oilalariga xizmat ko‘rsatish jarayonida, jumladan, protsessual harakatlarda hamrohlik qilish masalalarida amaliy ko‘mak berish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish va ularni jamiyatga to‘laqonli integratsiya qilish borasidagi islohotlar inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan davlat siyosatining izchil davomidir. Mazkur tashabbus oila institutini mustahkamlash, jamiyatda bag‘rikenglik va mas’uliyat muhitini shakllantirishga ham mustahkam zamin yaratmoqda.

Eng muhimi, yaratilgan yangi mexanizmlar manzilli ijtimoiy xizmatlar, vaucher asosidagi moliyalashtirish tizimi, “Mehrli oila” xizmati va maxsus markaz faoliyati har bir bola taqdiriga individual yondashuvni ta’minlaydi. Chunki har bir bola alohida dunyo, alohida orzu va alohida imkoniyatdir. Bolani asrash kelajakni barpo etishdir.

Sharh

Jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillar har doim ham ko‘zga tashlanib turadigan, ochiq-oydin shakllarda namoyon bo‘lavermaydi. Ayrim o‘zgarishlar yillar davomida sekinlik bilan sodir bo‘ladi, ichki muhitda yetilib boradi. Samarasi esa shunga monand — xuddi olis cho‘qqilarga qish bo‘yi yoqqan qor fursati yetgach erib, bog‘u dalalarga obi rahmat bo‘lib ariqlarni to‘ldirganidek, uzoq vaqt elu xalq kamoliga xizmat qiladi. Kitobxonlik masalasi ham shunday jarayonlar sirasiga kiradi.

Kitobxonlik MADANIYATI

YOXUD KITOBNI MADANIY ATRIBUT EMAS, BALKI IJTIMOIY TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA ANGLASH ZARURATI

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tarixiy tajriba ko‘rsatadiki, har qanday yuksalish davri bilimga munosabat bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Ilmga, mutolaaga, fikr almashuviga e’tibor susaygan jamiyatlarda taraqqiyot uzluksiz davom etmagan. O‘qish madaniyati shakllangan muhitda esa fikr mas’uliyati, shaxsiy javobgarlik va umumiy manfaat tushunchalari mustahkam o‘rin olgan. Shu sababli kitobxonlik jamiyatning umumiy holati bilan chambarchas bog‘liq masaladir. Bugun iqtisodiy o‘sish, infratuzilma yangilanishi, boshqaruv tizimlari takomillashuvi bilan bir qatorda fikr sifati masalasi kun tartibiga chiqayotganining boisi ham shu. Jamiyatning ertangi kuni faqat moddiy ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanmasligini tobora teranroq anglab yetar ekanmiz, bu holat, o‘z navbatida, bilimga, mutolaaga, ma’naviy muhitga nisbatan yondashuvni qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 15-yanvardagi “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori aynan shu ehtiyoj bilan bog‘liq holda qabul qilingan muhim hujjatdir. Qarorda kitobxonlik alohida kampaniya yoki qisqa muddatli tashabbus sifatida talqin etilmay, aksincha, mutolaaga jamiyat hayotining turli bo‘g‘inlariga bevosita aloqador strategik vazifa o‘laroq qaralayotganini kuzatish mumkin. Bu yondashuv kitobni madaniy atribut emas, balki ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida anglashga asoslanadi. Ya’ni kitobxonlikka doir vazifalar ma’muriy talab shaklida qo‘yilmagan. Asosiy e’tibor sharoit yaratishga, imkoniyatlarni kengaytirish va rag‘batlantirish mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, kitobxonlik masalasini milliy xavfsizlik, intellektual barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat tushunchalari bilan bog‘liq holda tushunar ekanmiz, ayni vaqtda qaror ortida turgan fikrlar tizimini anglash hamda ularning jamiyat rivojiga ta’sir doirasini o‘rganish, atroflicha tahlilga tortish, munosabat bildirish ehtiyoji paydo bo‘lishi tabiiy.

Moliyaviy va institutsional yechimlar

Jamiyatda muayyan odatlarning keng tarqalishi ularning shaxsiy tanlov doirasidan chiqib, umumiy qabul qilingan me’yor darajasiga ko‘tarilganidan dalolat beradi. Bunday jarayon odatda uzoq muddatli ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi. Kitobxonlik masalasi ham aynan shu yo‘sinda baholanishi lozim. Xususan, qarorga muvofiq, “Kitob — ma’rifat manbai” loyihasi doirasida aholi o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish va yiliga o‘rtacha 10 ta kitob o‘qish maqsadi joriy etilishi ko‘zda tutilmoqda. Ushbu ko‘rsatkich orqali jamiyatga aniq yo‘nalish beriladi, bunday yondashuv esa mutolaani alohida tashabbus darajasidan kundalik hayot tarkibiga olib kirishga xizmat qiladi.

Psixologlarning ta’kidlashicha, ijtimoiy me’yor darajasiga yetgan har qanday odat tashqi nazoratga muhtoj bo‘lmaydi. Shu ma’noda, o‘qish madaniyati keng yoyilgan muhitda insonning mutolaa bilan shug‘ullanishi alohida e’tirof talab qilmaydi. Aksincha, undan chetda qolish savol tug‘dirishi mumkin. Muayyan muddatda o‘qilishi belgilangan kitoblar soni esa vaqt tushunchasini qayta tartiblaydi. O‘qish jarayoni bo‘sh paytga qoldiriladigan mashg‘ulot emas, rejalashtiriladigan faoliyat sifatida idrok etilishi insonning shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Qisqasi, mutolaa bilan vaqtni mazmunan to‘ldirish odatini shakllantirish orqali o‘qish jarayoni uzluksiz va barqaror tus oladi.

Shu bilan birga, har qanday ijtimoiy tashabbus singari kitobxonlik masalasiga doir moliyaviy va institutsional yechimlarning alohida belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki maqsad aniq ifodalangan taqdirda ham moliyaviy va tashkiliy asoslar yetarli darajada mustahkam bo‘lmasa, natija kutilgan darajaga yetishi amrimahol. Demak, Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilishidan ko‘zlangan maqsadni tushunish qiyin emas. Jamg‘arma kitob bilan bog‘liq jarayonlarni markazlashgan holda qo‘llab-quvvatlash imkonini yaratadi. Nashr, tarjima, mualliflik huquqi, targ‘ibot kabi yo‘nalishlar yagona moliyaviy mexanizm orqali muvofiqlashtiriladi.

Avvalgi davrlarda kitob nashri va tarjima masalalari ko‘pincha alohida tashabbuslar doirasida hal etilib kelindi. Bunday yondashuv uzoq muddatli rejalashtirish imkonini cheklashi ayon. Jamg‘arma faoliyati esa bu jarayonni tizimli yo‘lga qo‘yadi. Moliyaviy resurslarning maqsadli yo‘naltirilishi natijasida nashrlar sifati, tarjimalarning puxtaligi va mualliflik huquqiga munosabatda barqarorlik yuzaga keladi. Tarjima, nashrga tayyorlash va chop etish xarajatlari uchun ajratiladigan mablag‘ miqdori oshirilishi alohida mavzu. Bu orqali jahon tajribasi, ilmiy va badiiy meros bilan tanishish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, milliy adabiyotning ichki rivoji uchun zarur sharoit yaratiladi.

Moliyaviy mexanizmlarning aniqligi sohada mas’uliyatni oshiradi. Mablag‘ ajratilishi bilan birga natija uchun javobgarlik masalasi ham kun tartibiga chiqadi. Qaysi loyihalar ustuvor hisoblanishi, qaysi yo‘nalishlar jamiyat ehtiyojlariga mos kelishi ochiq muhokama etilishi bu borada muhim. Shuningdek, jamg‘arma orqali tarjima va nashr xarajatlarining muayyan qismini qoplash mexanizmi ham alohida e’tiborga loyiq. Bu, o‘z navbatida, sohaga xususiy tashabbuslarni jalb etish imkonini kengaytiradi. Nashriyotlar, tarjimonlar, mualliflar uchun xavf darajasi kamayadi. Shu tariqa moliyaviy va institutsional asoslar kitobxonlik siyosatining tayanch nuqtasiga aylanadi. Bu asoslar tashabbuslarning uzluksizligini, rejalarning izchilligini, natijalarning barqarorligini ta’minlaydi.

“Jadidlar izidan”

Yosh avlod qanday bilim egallaydi, o‘z hayot konsepsiyasini tanlashda qaysi manbalarga tayanadi, nimalardan ulgi oladi, fikrni qay tarzda shakllantiradi, bayon qiladi — ana shu omillar jamiyat ertangi kunining sifatini belgilaydi. Shu sababli kitobxonlik masalasida yoshlar bilan ishlash alohida yo‘nalish sifatida ko‘rilishi tabiiy hol. Yosh avlod bilan bog‘liq siyosatda asosiy masala bilimga, kitobxonlikka munosabatni shakllantirishdir. O‘qish majburiyat sifatida qabul qilingan muhitda mutolaa xo‘jako‘rsindan nariga o‘tmaydi, u ehtiyojga aylanganda esa tafakkur tabiiy ravishda rivojlanadi. Qarorda yoshlar uchun belgilangan tashabbuslar aynan shu farqni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Chunonchi, maktab yoshida mutolaa odatini shakllantirish masalasiga to‘xtalsak. Aynan shu davrda insonning dunyoni idrok etish usuli, savol berish qobiliyati, o‘z fikriga munosabati tarkib topadi. Kitob bilan erta tanishgan yosh voqelikni tayyor sxemalar emas, mulohaza orqali anglashga moyil bo‘ladi. Bu jarayon shaxsiy intizomni, e’tiborni jamlash, fikrni izchil bayon etish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

“Jadidlar izidan” nomi bilan yo‘lga qo‘yilayotgan kitobxonlik klubi loyihasi mazmunan tarixiy xotiraga suyanadi. Jadidlar faoliyati, avvalo, yosh avlodni o‘qishga, anglashga, dunyo bilan fikr orqali muloqot qilishga chorlagan. Ularning asosiy g‘oyasi tayyor haqiqatlarni takrorlash emas, bil’aks, savol qo‘yish madaniyatini shakllantirishdan iborat bo‘lgan. Bugungi sharoitda bu yondashuv zamonaviy ehtiyojlarga mos holda qayta talqin qilinyapti.

Mazkur klub doirasida yoshlar uchun mutolaa individual mashg‘ulotdan jamoaviy tajribaga aylantiriladi. O‘qilgan asarlar yuzasidan fikr almashish, bahs yuritish, mulohaza bildirish yoshlarni tayyor xulosani qabul qilish o‘rniga o‘z qarashini shakllantirishga yo‘naltiradi. Fikrni asoslash, dalil keltirish, boshqacha qarashlarga munosabat bildirish madaniyati asta-sekin qaror topadi.

Kitobxonlik klubi yoshlarning yiliga kamida 20 ta kitob o‘qishini ta’minlashni nazarda tutmoqda. Mazkur tashabbus mutolaani vaqt bilan bog‘lash, o‘qishni rejalashtirilgan faoliyatga aylantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni rag‘batlantirish masalasi ustuvor. Negaki rag‘bat mehnat va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. O‘qish orqali erishilgan bilim va tafakkur jamiyat tomonidan e’tirof etilishi yoshlar ongida ijobiy munosabat uyg‘otib, mutolaani ijtimoiy nufuz omiliga aylantiradi.

Mutolaa orqali shakllanayotgan fikrlash madaniyati yoshlarning hayotiy tanlovlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘qigan, solishtirgan, xulosa chiqargan yosh voqelikka bir yoqlama yondashmaydi. U sabab va oqibatni ajratishga odatlanadi. Shaxsiy mas’uliyat, ijtimoiy pozitsiya, ongli qaror qabul qilish kabi sifatlar aynan shu jarayonda o‘z samarasini namoyon etadi.

Muallif va ijod mas’uliyati: adabiy mehnat bahosi

Har bir davrning o‘z savol-so‘roqlari bo‘ladi, bu savollarga javob topish jarayoni esa muayyan fikr egalari orqali kechadi. Ana shu jarayonda muallif shunchaki matn yaratuvchi shaxs emas, balki jamiyat ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi mas’ul subyekt sifatida maydonga chiqadi. Shu bois, adabiy ijodga munosabat jamiyatning qay bir ma’noda o‘z fikriga bo‘lgan munosabati hamdir. Shunga qaramay, uzoq vaqt davomida ijodkor faoliyatiga ko‘proq ichki ehtiyoj mahsuli sifatida qaralib kelindi. Bunday yondashuv esa adabiyotning ijtimoiy vazifasini tan olmaslik, uni aylanib o‘tishga behuda urinishdan boshqa narsa emas. Ijodkorlar aslida jamiyat hayotida muhim rol o‘ynasada, ularning mehnati ko‘pincha tizimli qo‘llab-quvvatlashdan chetda qolib kelganini ham hech bir vaj bilan oqlab bo‘lmaydi, nazarimizda.

O‘zbekiston Prezidenti qarorida mualliflarni aniqlash va ularning ijodiy faoliyatini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalasining kun tartibiga chiqishi ushbu muammo o‘z vaqtida anglanib, unga samarali yechim taqdim etilayotganidan darak. Afsuski, ijodkorni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalasi ko‘pincha noto‘g‘ri talqin qilinadi. Mohiyatan gap faqat rag‘bat haqida ketayotgani yo‘q. Asosiy masala ijod uchun zarur bo‘lgan sharoit yaratishdan iborat.

Qarorda nazarda tutilgan “Iste’dodli mualliflar” loyihasi doirasida yosh yozuvchi va tarjimonlarni rag‘batlantirish mexanizmi orqali tanlov asosida aniqlanadigan mualliflarga bir yilgacha haq to‘lanishi ijodiy mehnatni rejalashtirilgan faoliyatga aylantiradi. Muallif o‘z vaqtini izchil ravishda ijodga bag‘ishlash imkoniga ega bo‘ladi. Bu holat puxta ishlangan asarlar yaratilishi uchun sharoit hozirlaydi. Ayni paytda ijod erkinligi bilan ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasida muvozanat qaror topadi.

Mazkur yondashuv adabiy muhitda tanlov mezonlarini ham aniqlashtiradi. Ijodkorning fikr kengligi, mavzuga yondashuvi, jamiyat hayotiga munosabati e’tibor markaziga chiqadi. Bu esa adabiyotning ichki sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi turgan gap. Muallifga yaratilayotgan sharoitlar adabiyotning jamiyat bilan aloqasini mustahkamlaydi. Ijodkor fikr bildirish, bahsga kirishish, mas’ul savollar qo‘yish imkoniga ega bo‘ladi. Shu orqali adabiyot jamiyat hayotining faol ishtirokchisiga aylanadi. Shu jihatdan ham mualliflarni aniqlash va ularning ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar kitobxonlik siyosatining muhim bo‘g‘inidir. Bu bo‘g‘in adabiy so‘zning ijtimoiy vaznini oshiradi, fikrning jamiyat hayotidagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Milliy adabiyot faqat ichki imkoniyat va resurslar bilan cheklanib yetarlicha ravnaq topa bilmasligini ham unutmaslik lozim. Uning tabiiy ehtiyoji tashqi makon bilan muloqot qilish, boshqa tajribalar bilan yuzlashish, o‘z ovozini kengroq maydonda eshittirishdan iborat. Ayni holda tarjima masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, aniqrog‘i, u fikrlar almashinuvi, madaniy tajribalar uchrashuvi, intellektual ufqlarning kengayish jarayonidir. Qaror bilan eng sara jahon adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga, milliy adabiyot namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilish masalasining alohida belgilanishi ana shu ehtiyoj bilan bog‘liq. Ayni maqsadda 2026-2030-yillar mobaynida “Jahon adabiyoti o‘zbek tilida” loyihasi doirasida xorijiy adabiyotlarni tarjima qilish xarajatlarining 80 foizigacha qismi qoplab berilib, har bir loyiha uchun BHMning 600 baravarigacha, shuningdek, “Milliy kitob tarjimasi va nashri” loyihasi uchun joriy yildan boshlab har yili BHMning 60 ming baravarigacha mablag‘ ajratilishi belgilangan.

Xorijiy adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish orqali jamiyatning intellektual doirasi kengayadi. Turli davrlar, maktablar, qarashlar bilan tanishish imkoni paydo bo‘ladi. Milliy adabiyotning xorijiy tillarga tarjima qilinishi esa butunlay boshqa mas’uliyatni yuklaydi. Tarjima orqali milliy ruh, tarixiy xotira, madaniy qarashlar tashqi o‘quvchiga yetkaziladi. Shu sababli qaysi asarlar tanlanayotgani, qanday talqin berilayotgani alohida e’tibor talab qiladi.

Qarorda tarjima va nashr xarajatlarining muayyan qismini qoplash mexanizmi belgilanishi ushbu jarayonga tizimli yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi. Tarjima sohasi ko‘p hollarda katta mehnat talab qiladigan, moliyaviy jihatdan murakkab yo‘nalish hisoblanadi. Davlat tomonidan yaratilayotgan sharoit ushbu yo‘nalishda sifatli ish olib borish imkonini kengaytiradi. Tarjimon, muharrir, nashriyot faoliyati o‘zaro uyg‘unlashadi. Xalqaro maydonda esa bilvosita mamlakat va ijodkor mansub millat imijini ilgari suradi, ya’ni o‘quvchi biror asar orqali jamiyatning qadriyatlari, muammolari, orzu-intilishlari haqida tasavvur hosil qiladi. Shu nuqtada adabiyot yumshoq ta’sir vositasi — “yumshoq kuch” vazifasini bajaradi. U bevosita targ‘ibot bilan shug‘ullanmasa-da, o‘quvchini fikr ortidan ergashtirishi mumkin.

Mutolaaning ijtimoiy makoni

Kitobxonlik tom ma’noda madaniyat darajasiga yetishi uchun birinchi galda qulay muhit, doimiy mavjudlik va kundalik hayot bilan uyg‘unlashgan makon zarur. Shu bois, kitobxonlik siyosatida infratuzilma masalasi naqadar muhim ekani xususida yuqorida ham so‘z yuritdik. Bu borada kutubxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, hududlar kesimida yangilarini bunyod etish dolzarb vazifalardan. Jumladan, “330 ta mahalla kutubxonasi” loyihasi asosida mahalla kutubxonalari zamonaviy formatga o‘tkazilib, har bir kutubxona uchun BHMning 180 baravarigacha mablag‘ ajratilishini nazarda tutuvchi tashabbus ilgari surilmoqda. Zero, mahalla jamiyatning eng quyi va eng tirik bo‘g‘ini hisoblanar, kundalik hayot, muloqot, tarbiya va munosabatlar ana shu makonda shakllanar ekan, kitob va kitobxonlikning aynan shu muhitga kirib borishi mutolaa geografiyasi va qamrovini ham kengaytirishi shubhasiz.

Infratuzilma masalasida yana bir muhim yo‘nalish — raqamli imkoniyatlar. “Mutolaa” loyihasi orqali jamoat transporti va infratuzilma obyektlarida elektron va audiokitoblardan foydalanish imkoniyati yaratilishi o‘qish jarayonini makon va vaqt bilan bog‘liq cheklovlardan xalos qiladi. Bu, ayniqsa, yoshlar va ish bilan band qatlam uchun qulaylik yaratadi.

Jamiyatda muayyan faoliyat ko‘pincha unga berilgan baho hamda rag‘batlantiruvchi omillar orqali barqarorlashadi. Biz so‘z yuritayotgan masalada ham aynan shu qonuniyat amal qiladi. Qaror bilan “Top 100 kitobxon” loyihasi doirasida o‘quvchi va talabalar orasida eng ko‘p kitob o‘qiganlar taqdirlanishi, kitobxonlik reytingini shakllantirish borasidagi tashabbus ana shu ehtiyojdan kelib chiqdi deyish mumkin.

Reyting mexanizmi orqali kitobxonlik ijtimoiy raqobat maydoniga kiradi. Bu raqobat moddiy manfaat uchun emas, balki intellektual faollikni oshirishni ko‘zda tutadi. Insonlar o‘z ustida ishlashga, ko‘proq o‘qishga, fikr doirasini kengaytirishga intiladi. Shu tarzda mutolaa shaxsiy rivojlanish bilan birga ijtimoiy nufuz omiliga aylanadi. “Top 100 kitobxon” dasturi doirasida belgilangan rag‘bat mexanizmi ayni maqsadga xizmat qiladi. Xususan, intellektual raqobat muhiti shakllanishi jamiyatda fikrlar xilma-xilligini kuchaytiradi, fikr almashish madaniyatini mustahkamlaydi.

Shu o‘rinda qarorning jamiyat oldida mas’ul shaxs sifatida muayyan ma’noda fikr tashuvchi subyekt hisoblanmish davlat xizmatchilarining fikrlash darajasi, dunyoqarashi va qaror qabul qilish madaniyatiga daxldor jihatlariga to‘xtalish joiz. Zero, ularning intellektual tayyorgarligi davlat boshqaruvining ichki sifati bilan bevosita bog‘liq. Vazirlik va idoralarda kasbiy faoliyatga oid adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirish tashabbusi davlat xizmatida bilim bilan ishlashga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishga qaratilgan. Bu yondashuv xodimdan faqat amaldagi tartib-qoidalarni bilishnigina emas, o‘z sohasining mazmunini chuqur anglashni ham talab etadi. Kasbiy adabiyotlar orqali davlat xizmatchisi o‘z faoliyatini kengroq kontekstda ko‘ra boshlaydi. Qarorlar tor doiradagi ko‘rsatmalar bilan cheklanib qolmay, umumiy jarayonlar bilan bog‘lanadi.

Idoralarda “Kitob burchagi” tashkil etilishi esa davlat xizmatchisining kundalik ish muhiti bilan mutolaa o‘rtasida bevosita bog‘lanish hosil qiladi. Xodim kerakli ma’lumotni izlash, o‘rganish, solishtirish orqali ish yuritishga ko‘nikadi. Har oyda yo‘lga qo‘yiladigan “Kitob o‘qish soati” xususida ham shunday fikr bildirish mumkin. Bundan tashqari, davlat idoralarida eng ko‘p kitob o‘qigan xodimni moddiy jihatdan rag‘batlantirish tashabbusi o‘qishga berilayotgan e’tibor darajasini aniq ko‘rsatadi. U bilim va mehnat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi vosita vazifasini bajaradi. O‘qish orqali o‘z ustida ishlagan xodimning mehnati e’tirof etiladi.

Mutolaa madaniyati davlat xizmatchisining axloqiy pozitsiyasini ham mustahkamlaydi. Kitob orqali shakllanadigan fikrlash insonni faqat hujjat bilan emas, jamiyat manfaatlari bilan ishlashga undaydi. Xodim o‘z faoliyatining ijtimoiy oqibatlari haqida mulohaza yuritadi. Davlat xizmatida bilimga tayangan muhit shakllanganida tashqi nazoratga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi. Shu jihatdan qaralganda, vazirlik va idoralarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish tashabbuslari davlat xizmatining ichki sifatini oshiradi, ma’nan yetuk rahbar-xodimlar safini kengaytiradi.

Mazkur hujjatda ilgari surilgan tashabbuslar bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda umumiy maqsadga xizmat qiladi. Kitobxonlikni ijtimoiy me’yor sifatida qaror toptirish, moliyaviy va institutsional tayanch yaratish, yoshlar bilan tizimli ishlash, ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, tarjima siyosatini yo‘lga qo‘yish, infratuzilmani kengaytirish, rag‘bat va reyting mexanizmlarini joriy etish, davlat xizmatida mutolaa madaniyatini shakllantirish — bularning barchasi yagona mantiqiy zanjirni hosil qiladi. Ana shu jarayon orqali barqaror taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan ongli muhit shakllanadi. Bu muhitda so‘zning qadri ortadi, fikrning mas’uliyati kuchayadi, kelajak haqida qarorlar aniqlik va vazminlik bilan qabul qilinadi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-246.
30829 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 06:45

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05